

## YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 178 (967), 2023-yil 1-sentabr, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



## BIZ BIR BO‘LSAK – YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK – VATANMIZ!

“Yangi O‘zbekiston” bog‘ida mustaqilligimizning o‘ttiz ikki yilligiga bag‘ishlangan tantanali bayram tadbiri bo‘lib o‘tdi



Har bir kunning o‘zgacha fayzi bor. Har soniyada hikmat yashirin. Hayot qadri yorqin lahzalarda ifoda topadi. Odam avlodlarini obod va farovon kunlar shukhi chorlab turadi. Ammo bularning bari faqat ozodlik ruhi va erkin yashash taqdiri bilan-

gina haqiqatdir. Shu bois, insoniyat hamisha hurlik uchun kurashib keladi. Shu bois, hayotning asl qadr-qimmatini sanalgan, dunyodagi eng totli, eng jarangli so‘z — OZODLIK, MUSTAQILLIKni ulug‘laydi, sharaflaydi.

O‘tgan asrning to‘qson birinchi yili. O‘ttiz birinchi avgust. Shu kun tongi xalqimizga asriy orzulari ro‘yobini ulashdi. O‘zbekiston suvereniteti rasman e‘lon qilindi va ilk bor milliyatchiligimiz ifodasi — birinchi



sentabr Mustaqillik bayrami sifatida belgilandi. Xalqimizning ishonch va mag‘rurlik yo‘g‘rilgan qadamlari boshlandi. U yil sayin jarangdor aks-sado berib bordi.

Bugun shu kunni o‘ttiz ikkinchi bor

tantana qilyapmiz. Vaqt o‘taveradi. Lekin bu kun har gal mamlakatimizda ham, vatandoshlarimiz qalbida ham muhtasham va mag‘rur qiyofada jonlanib turaveradi, elimizni ruhlantiraveradi.

Xalqimiz dahosi bilan bog‘liq odatga ko‘ra, bayramlarda yaxshi insonlar xotirasi yodga olinadi. Ayniqsa, bugungi eng ulug‘ kun uchun kurashganlar yodi manguilikka daxldordir.

Davomi 2-betda

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MUSTAQILLIGINING O‘TTIZ IKKI YILLIGIGA BAG‘ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI NUTQI

Assalomu alaykum, qadri vatandoshlar! Muhtaram otaxon va onaxonlar!

Yurtimiz kelajagi bo‘lgan yoshlar!

Hurmatli mehmonlar!

Bundan roppa-rosa o‘ttiz ikki yil muqaddam O‘zbekiston o‘z mustaqilligini e‘lon qildi. O‘tgan davrda biz qancha sinovlarni boshimizdan o‘tkazdik, ko‘plab qiyinchilik va mashaqqatlarni birgalikda yengdik.

O‘ttiz ikki yil avval tug‘ilgan go‘dak bugun o‘zining mustaqil fikri, dunyoqarashi, orzu-istaklari va maqsadlariga ega shaxs sifatida voyaga yetdi. Xuddi shu singari, bugungi O‘zbekiston ham, o‘tgan davrda turli sinovlarda toblanib, tajriba orttirib, o‘zining aniq maqsadi va yo‘li, pozitsiyasiga ega bo‘lgan katta davlat sifatida shakllandi. Bu – butun xalqimizning tarixiy yutugi.

Unda har biringizning munosib hissangiz bor!

Siz, azizlarning Vatanga mehr va sadoqat bilan qilayotgan har kunlik mehnatingiz O‘zbekiston mustaqilligini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu ma‘noda, Istiqlol bayrami — barchamizning bayramimiz, mustaqil O‘zbekiston — barchamizning faxrimiz, iftixorimiz, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Mana shu shukuhli damlarda har qanday sharoitda ham o‘z kasbiga sodiq qolib, yosh avlodimizga ilm-fan asoslarini o‘rgatib kelayotgan hurmatli muallim va murabbiylarni, xalq salomatligi yo‘lida o‘zini ayamasdan xizmat qilayotgan jonkuyar shifokorlarni, el-yurt dasturxonini yanada to‘kin qilish uchun dalalarimizda fidokorona mehnat qilayotgan mirishkor dehqon va

fermerlarimizni, ona yurtimiz qalqonlari bo‘lgan jasur harbiylarimizni, iqtisodiyotimiz rivoji, xalqimiz farovonligini oshirish yo‘lida jonbozlik ko‘rsatayotgan tadbirkorlarimizni, o‘zining dastlabki yutuqlari bilan barchamizni xursand qilayotgan azm-u shijoatli yoshlarimizni, qalb to‘la mehri, ulug‘ fazilatlar bilan xonadonlarimiz ustuni bo‘lib kelayotgan hurmatli opa-singillarimizni, har bir ishda duogo‘y bo‘lib, bizga Yaratgandan kuch va madad tilab turgan muhtaram otaxon va onaxonlarimizni, dunyoning qaysi o‘lkasida bo‘lsa ham, O‘zbekiston sog‘inchi bilan yashayotgan aziz vatandoshlarimizni, bir so‘z bilan aytganda, 36 millionli butun xalqimizni bugungi ulug‘ bayram bilan chin qalbidan samimiy tabriklayman.

Istiqlol ayyomi barchamizga muborak bo‘lsin!

Qadri do‘stlar!

Albatta, O‘zbekiston o‘z suvereniteti, davlat mustaqilligiga osonlik bilan erishgani yo‘q. Bu yo‘lda ajdodlarimizning siyosiy va ma‘rifiy intilishlari so‘nggi bir yarim asr davomida deyarli to‘xtamadi. Hurriyat uchun kurashgan ko‘plab Vatani fidoyilari qatag‘on etildi, istiqloлга intilgan millat qahramonlari zulm va zo‘ravonlik qurboni bo‘ldi.

Biz yurt ozodligi yo‘lida kurashgan, nohaq ayblanib, bu dunyodan armon bilan ketgan vatandoshlarimizning pok nomlarini tiklashni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ygan edik. So‘nggi uch yilda ularning 856 nafari Oliy sud tomonidan qo‘lani. Biz bunday ezu ishlarini albatta davom ettiramiz. Zero, bu masalada adolat qaror topishi shart.

Davomi 2-betda

## VATAN OZODLIGI YO‘LIDA SHAHID KETGANLAR XOTIRASI MANGU BARHAYOTDIR

Mustabid va istilolar davrida zaminimizda minglab begunoh insonlar umri xazon bo‘lganini, qancha-qancha oilalar parokanda va xonavyron bo‘lib, go‘daklar yetim qolganini tarix, bugungi va kelajak avlod hech qachon unutmaydi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 31-avgust kuni erta tongda Shahidlar xotirasi xiyoboniga tashrif buyurdi.

Qur‘on tilovat etilib, o‘tganlar haqiga duo qilindi. Elga osh tortildi.

Mustaqillik kunlarida millatimiz oydinlari xotirasini e‘zozlash, xizmatlari eslash yaxshi an‘ana. Chunki ular xalqimiz ozodligi uchun, bugungidek emm-erkin kunlar uchun intilgan edi. Bu sana Vatanga fidoyilik unutilmasligini, hamisha qadrlanishini anglatadi.

Mustabid tuzum davrida yurtimizda ming-minglab odamlar qatag‘on uchragan. Oilalari xonavyron

bo‘lib, bolalari yetim qolgan. Birgina 1937-1938-yillardagi katta qirg‘in davrida 7 mingga yaqin vatandoshimiz otildi.

Hozirgi xiyobon shunday qatlar ijro etiladigan mudhish joy bo‘lgan. Mustaqillik yillarida u obod maskan-ga aylantirildi. Bu yerda “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda uning filiallari tashkil etildi. Ayni paytda muzeyda Turkiston ma‘rifatparvarlari-ga bag‘ishlangan ko‘rgazma ochilgan.

Davomi 4-betda

## SAMIMIY QUTLOVLAR

Ko‘p millatli xalqimiz hayotidagi muhim sana – davlat mustaqilligining 32 yilligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nomiga xorijiy davlatlar va hukumatlar, nufuzli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar rahbarlari, taniqli siyosat, jamoat va din arboblari tabriklar kelmoqda.

Xorijiy hamkorlar o‘z qutlovlarida keyingi yillarda demokratik yangilanishlar va milliy taraqqiyot yo‘lidagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar dasturini amalga oshirishda, mamlakatimizning xalqaro maydonda g‘orni va obro‘sinu yuksaltirishda erishilgan ulkan muvaffaqiyatlarni alohida qayd etgan.

Ta’kidlanganidek, yaqinda bo‘lib o‘tgan muhim siyosiy voqea — yangilangan

Konstitutsiyaning qabul qilinishi xalqimiz Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratilgan ortga qaytmas islohotlarni so‘zsiz qo‘llab-quvvatlayotganidan dalolatdir.

Tabriknomalarda davlatimiz rahbariga yangi muvaffaqiyatlar hamda O‘zbekiston xalqiga tinchlik, farovonlik va ravnaq tilaklari izhor etilgan.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga

Hurmatli Shavkat Mirziyoyev! O‘zbekiston Respublikasining milliy bayrami — Mustaqillik kuni munosabati bilan samimiy tabriklarimni qabul qiling.

Mamlakatimiz iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishda erishgan yutuqlar barchaga ma‘lum, O‘zbekiston jahon maydonida katta nufuzga ega, xalqaro kun tartibidagi dolzarb masalalarni hal etishda muhim rol o‘ynamoqda.

Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlar strategik sheriklik va ittifoqchilik ruhida muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. Moskva va Toshkentning MDH, SHHT, BMT va boshqa ko‘p tomonlama tuzilmalaridagi hamkorligi yaxshi samara bermokda.

Birgalikdagi sa‘y-harakatlar bilan konstruktiv ikki tomonlama aloqalarni barcha sohalarda, do‘st xalqlarimiz farovonligi uchun, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash yo‘lida bundan buyon ham izchil rivojlantirib borishimizga ishonaman.

Sizga, hurmatli Shavkat Mirziyoyev, mustahkam sog‘liq va muvaffaqiyatlar, O‘zbekistonning barcha fuqarolariga esa tinchlik-osoysiztalik va ravnaq tilayman.

Hurmat bilan,

Vladimir PUTIN, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga

Hurmatli Prezident janoblar! O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 32 yilligi munosabati bilan Siz va qardosh O‘zbekiston xalqiga samimiy tabrik va ezu tilaklarimni yo‘llashdan benihoya mamnunman.

Bu yil O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon alohida muhim yil bo‘ldi. Mamlakatimizda yangi Konstitutsiya bo‘yicha referendum va muddatidan oldin Prezident saylovi muvaffaqiyatli o‘tkazilib, O‘zbekistonning yuksalishi va bardavom taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor yaratildi. Sizning rahnamolingiz ostida Yangi O‘zbekiston barpo etilishida yanada katta yutuqlarga erishilishiga ishonaman.

Joriy yilning may oyida Siz “Markaziy Osiyo — Xitoy” sammitida ishtirok etdingiz va Xitoyga davlat tashrifini amalga oshirdingiz. Biz Xitoy — O‘zbekiston umumiy taqdir hamjamiyatini barpo etish va mamlakatlarimiz o‘rtasidagi har tomonlama hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha bir qator muhim kelishuvlarga erishdik.

“Bir makon, bir yo‘l” uchinchi xalqaro hamkorlik forumida ishtirok etish uchun joriy yil oktabr oyida yana Xitoyga kelishingizni intiqlik bilan kutib qolaman.

Men Xitoy — O‘zbekiston munosabatlari-ga alohida ahamiyat qarataman. Siz bilan o‘rnatilgan hamkorlik munosabatlarimiz va shaxsiy do‘stligimizni yuksak qadrlayman. Davlatlarimizning har tomonlama strategik sherikligining barqaror va izchil rivojlantirish hamda xitoy-o‘zbek hamjamiyatining qurilishiga yangi turtki berish uchun Siz bilan hamkorlik qilishga tayyorman.

Birodar O‘zbekiston xalqiga farovonlik va baxt-saodat tilayman!

Ehtirom bilan,

Si SZINPIN, Xitoy Xalq Respublikasi Raisi



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga

Hurmatli Prezident janoblar! Mamlakatimizning Mustaqillik kuni munosabati bilan Amerika Qo‘shma Shtatlari xalqi nomidan Sizga va O‘zbekiston xalqiga eng ezu tilaklarimni yo‘llayman.

O‘zbekiston va Amerika Qo‘shma Shtatlari o‘rtasidagi strategik sheriklik xalqlarimiz va butun dunyo xalqlari uchun yanada tinch va farovon kelajakni yaratishga yordam berdi.

Biz birgalikda mintaqaviy tahdidlarga, jumladan, tajovuzkor ekstremizm, g‘iyohvand moddalar va odam savdosiga qarshi kurashishda xavfsizlik sohasidagi hamkorligimizni rivojlantirmoqdamiz.

Biz ikki davlat o‘rtasida inkiyuziv iqtisodiy o‘sishga ko‘maklashish maqsadida savdo va sarmoyaviy aloqalarimizni chuqurlashtirmoqdamiz.

Biz umumiy qadriyatlarimiz, jumladan, mustaqillik, suverenitet va hududiy yaxlitlikni himoya qilmoqdamiz. Qo‘shma Shtatlar mintaqaviy muloqotni chuqurlashtirish, gender tengligini ta‘minlash, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda qat‘iy bo‘lgan O‘zbekistonni qo‘llab-quvvatlashda davom etadi.

Biz umumiy qadriyatlarimiz va birgalikdagi ishimiz yanada chuqurlashtirishni intiqlik bilan kutib qolaman. Sizga ushbu bayramni shodlik va xotirjamlik ila o‘tkazishingizni tilab qolaman.

Hurmat bilan,

Jozef BAYDEN, Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga

Muhtaram Prezident janoblar, aziz qardoshim! O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni munosabati bilan shaxsan o‘zim va xalqimiz nomidan Siz, Janobi Oliylarini va O‘zbekiston xalqini chin qalbidan muborakbod etaman.

Mustaqillikka erishganidan buyon kun sayin tobora taraqqiy etayotgan do‘st va qardosh O‘zbekistonning oqilona rahnamolingiz ostida qo‘lga kiritgan muvaffaqiyatlarini va xalqaro sahnada egallagan nufuzli o‘rni Turkiya uchun iftixor manbai.

Qisqa vaqt mobaynida keng qamrovli strategik hamkorlik darajasiga yetgan hamda mintaqamizda namuna bo‘ladigan munosabatlarimizni o‘rtamizdagi birdamlik ruhida yanada mustahkamlash borasidagi irodamizni yana bir bor ta’kidlash foydadan holi emas, deb o‘ylayman.

Fursatdan foydalanib, Siz, Janobi Oliylariga sihat-salomatlik va baxt saodat, do‘st va qardosh o‘zbek xalqiga farovonlik, omonlik tilaklarimni yetkazaman.

Rejep Tayyip ERDOG‘AN, Turkiya Respublikasi Prezidenti

Davomi 3-betda

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MUSTAQILLIGINING O'TTIZ IKKI YILLIGIGA BAG'ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI NUTQI

Boshlanishi 1-betda

O'tmishga nazar tashlar ekanmiz, achchiq bir haqiqatni tan olishga majburlim: "o'zbek" deganda, faqat erta-yu kech paxta dalasida mehnat qiladigan zahmatkash insonlar tasavvur qilinar edi. Afsuski, shu darajaga tushib qolgan edik.

Paxta hukmronligi o'zbekning peshonasiga yozilgan balo bo'ldi. Paxta siyosati Orolni quritdi, ekologiyamizni inqirozga olib keldi, iqtisodiyotimizni, ta'lim tizimini izdan chiqardi. Oqibatda bir necha avlod chalasavod bo'lib voyaga yetdi. Biz buning asoratlari bilan haligacha kurashyapmiz.

Bugun paxtachilikda bozor iqtisodiyoti tamoyillari joriy etilib, soha o'z egasini topdi. Natijada o'qituvchi maktabga, shifokor shifoxonaga qaytdi, tadbirkorlar paxta "o'loni"dan ozod bo'ldi, majburiy va bolalar mehnatiga chek qo'yildi. O'zbekiston xalqaro "qora ro'yaxlar"dan chiqarildi.

Barchamizning fidokorona mehnatimiz, g'ayrat-u shijoatimiz bilan Yangi O'zbekiston orzusi real haqiqatga aylangan. Xalqaro maydonda Vatanimizga nisbatan hurmat va e'tibor tobora ortib bormoqda.

Prezident sifatida dastlabki ishlarimdan biri qo'shni mamlakatlar bilan do'stona munosabatlarni o'rnatish bo'ldi. Yillar davomida yechimini kutayotgan muammolar hal etildi. Buning natijasida Markaziy Osiyo davlatlari bilan barcha sohalaridagi aloqalarimiz yangi bosqichga chiqdi.

Qadrlil yurtdoshlar! Siyosiy mustaqillik zamirida eng avvalo iqtisodiy mustaqillik yetishi hech kimga sir emas. Oxirgi yillarda amalga oshirgan ishlarimiz, erishgan natijalarimiz bu yo'lda mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. So'nggi 6 yilda yurtimizda yalpi ichki mahsulot hajmi 1,5 martadan ziyod, tadbirkorlik subyektlari soni 2 karra ko'paygani, sanoatdagi o'sish 40 foizdan oshgani buni yaqqol tasdiqlaydi. Qisqa muddatda kambag'allikni 2 barobardan ziyod qisqartirishga erishdik.

Lekin biz bugun bilan kechagi kunni emas, bugun bilan ertangi kunni taqqoslashimiz, ishimizni shu asosda tashkil etishimiz kerak. Chunki, kelajak bugun biz tashlayotgan qadamlardan boshlanadi. Aziz do'stlar!

Biz mutafakkir zotlarning: **"Davlatning vazifasi insonlarni baxtli-saodatli qilishdir. Bu maqsadga esa ilm va yaxshi axloq yordamida erishiladi"**, degan hikmatli so'zlarini o'zimiz uchun dastur deb bilamiz.

Ma'lumki, biz bir yil avval taraqqiyotimizning 5 ta asosiy yo'nalishini belgilab olgan edik. Unda ta'lim sohasini rivojlantirish birinchi galdagi ustuvor vazifa sifatida qayd etilgan.

Men doimo ta'lim, ta'lim, muallim, muallim, deb ta'kidlashim bejiz emas. Chunki ta'limni rivojlantirmasdan turib yuksak taraqqiyotga erisha olmaymiz. Har qanday muammoning yechimi ham, ertangi kunimizni hal qiluvchi omil ham, shubhasiz, ta'limdir.

2022-yili mamlakatimizda 72 ta yangi maktab qurildi, 279 tasi kapital ta'mirdan chiqarildi, 514 ta maktab esa rekonstruksiya qilindi. Maktablar uchun 30 mingdan ortiq kompyuter xarid qilindi. Yangi o'quv yilidan respublikamiz maktablarida xorijdan maxsus taklif etilgan 500 nafar ingliz tili mutaxassislari bolalarimizga dars beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ilg'or xorijiy tajriba asosida ishlab chiqilgan yangi dastur va darsliklar bo'yicha o'qiy boshlaydilar.

Xuddi shu kabi, sog'liqni saqlash, biznesni rivojlantirish, sud tizimini takomillashtirish hamda suv va yoqilg'i-energetika muammolarini hal etish yuzasidan katta loyihalar boshlangan. Yana bir bor ta'kidlayman: ushbu belgilangan ustuvor yo'nalishlar bizning doimiy e'tiborimiz markazida bo'ldi.

Hurmatli bayram ishtirokchilar! Agar 3 ming yillik tariximizga nazar tashlaydigan bo'lsak, ota-bobolarimiz asrlar mobaynida dunyo tamadduniga nafaqat jismoniy, balki intellektual mehnati bilan ulkan hissa qo'shganiga guvoh bo'lamiz.

Biz jahonga faqat xomashyo emas, avvalo ilm-ma'rifat, ma'naviy boyluk yetkazib bergan ne-ne ulug' zotlarning avlodimiz. Hech shubhasiz, ularga xos bo'lgan buyuk fazilatlar, ular yaratgan shonli an'analar bugun ham bizning qalbimizda, ongimizda, hayotimizda yashamoqda.

Men ishonaman, biz bu tarixiy yo'lni munosib davom ettirishga har tomonlama qodirmiz. Bugungi kunda dunyo xaritasida tutgan o'rnimiz, o'z oldimizga qo'yayotgan juda ulkan maqsad va marralarimiz ham aynan shuni taqozo etmoqda.

Shundan kelib chiqqan holda, biz transport-logistika tizimi bilan birga, bugun zamonning o'zi talab qilayotgan ilm-fan, innovatsiya, IT va aqliy mehnatga asoslangan boshqa sohalarini jadal rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratyapmiz. Aynan shu yo'nalishlar O'zbekiston iqtisodiyotining yaqin kelajakdagi asosiy lokomotivlariga aylanadi.

Muhtaram do'stlar! Bugun bizning oldimizda turgan yana bir muhim masala — ekologik muammolar va suv tanqisligidir.

Tarozining bir pallasida o'sib borayotgan qurilishlar, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi turgan bo'lsa, ikkinchi pallasida har birimiz uchun eng zarur bo'lgan suvni tejash, atrof-muhit ifloslanishining oldini olish va yer resurslaridan oqilona foydalanish masalasi turibdi.

Bizning vazifamiz — har ikki yo'nalishda ham muvozanatni saqlashdan iborat. Hech qachon unutmashimiz lozimki, tabiiy resurslar — bu kelajak avlodlarimizga ham tegishli bo'lgan boylikdir. Shu bois, ulardan nafaqat bugungi, balki ertangi kunimizni ham o'ylab, oqilona foydalanishimiz zarur.

Bu borada suvni, energiya va boshqa tabiiy resurslarni tejaydigan iqtisodiyotga tezroq o'tish muhim ahamiyatga ega. Biz uchun "yashil" va raqamli texnologiyalar, innovatsion ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish vazifasi ham dolzarb bo'lib turibdi.

Qadrlil yurtdoshlar! Yangilangan Konstitutsiyamizda O'zbekistonning dunyoviy davlat va turli madaniyatlarni birlashtirgan makon ekanini aniq belgilab qo'yildi. Bizning kuch-qudratimiz — mana shunda, biz bu boylikni ko'z qorachig'idek asrashimiz kerak. Tarixga qaraydigan bo'lsak, asrlar davomida yurtimizda turli xil e'tiqod va qarashlar, dinlar, madaniyatlar bag'rikenglik bilan qabul qilinganini ko'ramiz.

Biz — nizolarni urush bilan emas, tinchlik bilan hal etish yo'lini tanlaydigan xalqimiz. Biz barcha xalqlar bilan hamisha murossai madora, do'stlik va hamkorlikda yashab kelganmiz. Bugungi taraqqiyot yo'limizda ham aynan shu tamoyillarga tayanamiz.

Bizga, birinchi navbatda, kuchli fuqarolik jamiyati zarur, chunki har qanday islohot har birimizning yuragimizdan, ongimizdan boshlanishi lozim. Adolatli qonunlar bo'yicha vijdonan yashashga tayyor bo'lishimiz, mamlakat kelajagi uchun bir yoqadan bosh chiqarib, olg'a qadam bosmog'imiz kerak.

Bugun rivojlangan fuqarolik jamiyatini shakllantirish haqida gap borar ekan, buni so'z va matbuot erkinligisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Butun dunyoda jurnalistlar o'zlari va jamiyatni o'yantirayotgan, xavotirga solayotgan mavzular haqida gapirish va yozish huquqi uchun, haqiqat uchun kurashganlar va bundan keyin ham kurashadilar.

Ammo, ishonch bilan ayta olamanki, men erkin fikrli jurnalistlar tarafida bo'lganman va doimo shu pozitsiyada bo'lganman. Ayni vaqtda axborot makonida haqqoniylik va xolislik bosh mezon bo'lishi kerak. Hurmatli bayram qatnashchilar!

Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abduraf Fitrat

ta'бири bilan aytganda, **"xotin-qizlar — bu millat onalaridir"**. Ular millatning yangi nasli — farzandlarini tarbiyalash uchun o'zlari ham yuksak bilimli bo'lishlari zarur.

Shunday ekan, oldimizda turgan yana bir muhim vazifa — jamiyat hayotining barcha sohalarida ayollar uchun teng imkoniyatlar yaratishdir. Hurmatli xotin-qizlarimizning jamiyatdagi o'rni va nufuzini oshirish, ularning huquq va manfaatlarini, kasb-sohasi bo'yicha o'sishini ta'minlash borasida o'tgan davrda ko'p ishlarni amalga oshirdik. Shu bilan birga, bu yo'nalishda qiladigan ishlarimiz ham oz emas.

Ma'lumki, muhtaram ayollarimiz zimmasida xizmat sohasidagi vazifasidan tashqari, farzandlar tarbiyasi, oilada sog'lom muhitni mustahkamlash, axloqiy-ma'naviy an'analarni davom ettirishdek murakab vazifalar ham bor. Shunday ekan, mehribon opa-singillarimizni har qancha qo'llab-quvvatlasak, arziydi.

Mana, bu yil oiladagi zo'ravonlikka qarshi qonunni qabul qildik. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad — oilalar mustahkamligini, ayollarimizning baxti va himoyasini ta'minlashdir. Biz bu yo'nalishdagi ishlarimizni bundan keyin ham izchil davom ettiramiz.

Aziz yurtdoshlar! O'zbekistonning har bir farzandi xalqimizning birlamligi, mamlakat yaxlitligi uchun kurashib yashashni o'z hayotining ma'nosi deb bilmog'i kerak!

**Biz bir bo'lsak — yagona xalqimiz, birlashsak — Vatanimiz!** Hurmatli yurtdoshlar!

Insoniyat oxirgi besh-olti yil mobaynida so'nggi yuz yil davomida o'z boshidan o'tkazishi mumkin bo'lgan barcha sinovlar bilan yuzma-yuz kelgani sizlarga ma'lum.

Bu pandemiya bo'ladimi, tabiiy ofatlar, zilzilalar bo'ladimi, qurolli to'qnashuvlar, global isish hamda qurg'oqchilik bo'ladimi — barchasi bashariyatni qattiq sinovdan o'tkazdi va o'tkazmoqda. Mazkur murakab vaziyatni, ta'bir joiz bo'lsa, kuchli va qattiq to'fonga qiyoslash mumkin.

Bunday ofatlar oqibatida "manaman" degan daxrlarning ham barglari uzilishi, shoxlari sinishi, kurtaklari to'kilishi, hatto mevalari nobud bo'lishi mumkin. Lekin ildizi mustahkam va chuqur bo'lgan daraxtlar yiqilmaydi. Aksincha, yerga o'sha tomirlari bilan yanada mahkam bog'lanadi. Qayta kurtak yozadi, mevalar tugaveradi. Bu — hayot qonuni.

Bizning qadimiy va mustahkam ildizlarimiz bor. Bu — bizning tariximiz, qadriyat va an'analarimiz, urf-odatlarimiz, milliy o'zligimizdir. Men ana shu

teran ildizlarimizda yurtini, millatni birlashtiradigan buyuk bir g'oyani ko'raman.

Biz Vatanimiz mustaqilligi, xalqimiz tinchligini ta'minlashning ishonchli kafolati bo'lgan Qurolli Kuchlarimiz salohiyatini oshirishga, harbiy xizmatchilar va ularning oilalari uchun yanada munosib sharoit yaratishga alohida e'tibor qaratamiz.

Dunyoning olis va yaqin mamlakatlari, ayniqsa, qo'shni davlatlar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan do'stlik va o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini yangi bosqichga olib chiqamiz. Bu borada mamlakatimiz va xorijiy davlatlar diplomatlarining xizmatlarini alohida ta'kidlash lozim.

Mana shu imkoniyatdan foydalanib, bugungi tantanali marosimda xorijiy davlatlarning hurmatli elchilari, xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirok etayotganidan mamnun ekanimni bildirib, ularning mamlakatlari va xalqlariga tinchlik va ravnaq tilayman.

Aziz va muhtaram vatandoshlar! Barchangiz bir haqiqatni bilishingizni istardim. Bizning jami sa'y-harakatlarimiz mamlakatimiz ravnaqi uchun, o'z Vatanga sadoqatli xalqimiz uchun, sizlar uchun, aziz yurtdoshlar!

Bugun oldimizda turgan vazifalar qanchalik ulkan va murakkab bo'lmasin, ularni birgalikda hal etishga kuchimiz ham, imkoniyatimiz ham yetadi.

**Biz endi kechagi odamlar emasmiz. Xalqimiz ham kechagi xalq emas.** Tarixdan ma'lum: vaqtni — imkoniyatga, imkoniyatni — yutuqqa, yutuqni taraqqiyot poydevoriga aylantira olgan xalq — buyuk xalqdir. Bugun mehnatkash, mard va olijanob, mehr-oqibatli elimiz ayni shunday xalq bo'lib maydonga chiqmoqda.

Fursatdan foydalanib, Yangi O'zbekistonni barpo etishda fidokorona mehnat qilib kelayotgan barcha yurtdoshlarimizga, ona xalqimga chin qalbidan minnatdorlik bildiraman.

Siz, azizlarni, kattayu kichik barcha vatandoshlarimni bugungi ulug' ayyom — O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining o'ttiz ikki yilligi bilan yana bir bor chin qalbidan tabriklayman.

Barchangizga shah-salomatlik, xonadonlaringizga baxt-u saodat, fayz-u baraka tilayman. Barcha yutuq va g'alabalarimizning ijodkori va bunyodkori bo'lgan xalqimiz hamisha omon bo'lsin! Go'zal yurtimizda tinchlik va osoyishtalik bardavom bo'lsin!

Jonajon Vatanimizga ko'z tegmasin!  
Mustaqilligimiz abadiy bo'lsin!

## BIZ BIR BO'LSAK — YAGONA XALQIMIZ, BIRLASHSAK — VATANMIZ!

Boshlanishi 1-betda

El-yurtimiz ozodligi va erkinligi yo'lida qurbon bo'lganlar oz emas. Bu ajdodlarimiz bugungi kunlarimizni doim orzulang, eng yuksak maqsad deb bilib kurashib yashadi. El-yurt uchun hayotini baxsh etgan bunday asl vatanparvarlar xotirasi biz — minnatdor avlodlar yodida abadiy saqlanib qoladi. Shu bois, qatag'on qurbonlarini yod etish marosimi har yili 31-avgust kuni — Mustaqillik bayrami arafasida Toshkent shahridagi "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuida o'tkazilishi an'anaga aylangan.

"Yangi O'zbekiston" bog'i. Soat millari 19:00 ga yaqinlashib boradi. Muazzam bog'da Vatanimiz mustaqilligining o'ttiz ikki yilligiga bag'ishlangan bayram tadbiri boshlanish arafasida.

Ochiq amfiteatr bayram ishtirokchilari bilan gavjum. Har galgidek barchaning ko'nglida hayajon, yuzlarida tantana shukhi. Ular orasida hukumat a'zolari, senatorlar, deputatlar, ilm-fan, madaniyat va san'at namoyandalari, ishlab chiqarish ilg'orlari, tadbirkorlar, yoshlar, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan xorijiy davlatlar elchixonalari, xalqaro tashkilotlar vakillarini ko'rish mumkin.

Farovon hayotimiz, xalqimiz bunyodkorligi bobida "Yangi O'zbekiston" bog'ining alohida o'rni bor. Zero, uning nomi ham, go'zal qiyofasi ham barchamizda g'urur-iftixor uyg'otadi, tafakkurimizni oydin yo'l sari buradi. Bu yerdagi ramzlarning har biri shonli tariximiz sahifalariga va bunyodkorligimiz falsafasiga hamohang.

Mayin shabada esmoqda. Hurriyatimiz ramzi — bayroqlarimiz ozod hilpiraydi, monitorlarda istiqbolimizning shonli yutuqlari jonlanadi. Nigohlar ajib jilolanib turgan Mustaqillik monumentiga tushadi. Unda milliy davlatchilik tariximizning 3 ming yildan ziyod davri konseptual aks etgan.

Bu shukuhli manzara kishi xayolini kechagi va bugungi kunlar mushohadasiga chorlaydi. Mustaqillikning ilk yillarini yaxshi eslaymiz. Qiyinchilik davrini boshdan o'tkazganmiz. Hayot maromi bir tekis bo'lmagan kunlarni ham ko'rdik. Lekin sabr-toqatli va donishmand xalqimiz farovon kunlar umidi bilan yashadi, mehnat qildi.

Oradan yillar o'tdi. Dunyo xaritasida paydo bo'lgan yosh O'zbekiston davlati va ko'p millatli xalqimiz hamjihatligi bilan taraqqiyot marralarini zabt eta boshladik. Bu yutuqlar mustaqilligimiz poydevorini yanada mustahkamladi.

O'ttiz ikki yil mobaynida ortga chekinmadik. Chunki mustaqil Vatan mazmun-mohiyati tafakkur ko'zimizni ravshan qilib, dilimizga oliy maqsadlarni jo etgan edi. Elimiz o'z taqdiriga ega chiqib, yangi hayot, yangi jamiyat qurish uchun bor g'ayrati bilan mehnat qildi.

Bugun "Yangi O'zbekiston orzusi" paydo bo'ldi. Katta islohotlar davriga qadam qo'ydik.

...Bayram tantanasi boshlanishiga sanoqli daqiqalar qoldi. Amfiteatr sahni bir zum tin oldi. Tantanalil tadbirga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashrif buyurgani e'lon qilindi. Bayram ishtirokchilari davlatimiz rahbarini olqishlar bilan qarshi oldi.

**66 BU YILGI MUSTAQILLIK BAYRAMI MOHIYATIGA "YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O'ZBEKISTON UCHUN!" G'OYASI SINGDIRILDI. BOISI, XALQIMIZ HAR BIR KUNNI KATTA ORZU-INTILISHLAR BILAN QARSHI OLADI. OILALARDA, MAHALLALARDA YANGI HAYOT UCHUN KURASH RUHI KEZA BOSHLADI.**

Davlatimiz rahbari mustaqilligimizning o'ttiz ikki yilligi bilan xalqimizni muborakbod etdi.

...Sevganlarning parvozi Vatan. Bog' uzra taralayotgan qo'shiq sehiri ko'z ongimizda bo'layotgan o'zgarishlardan faxrlanish hissini bag'ishlaydi.

Hayotimizdagi o'zgarishlarni, yuksalishlarni birma-bir aytib, ko'p gapirish mumkin. Keling, ularning ayrimlarini sanaylik.

**Birinchi o'zgarish:** xalq bilan muqotning yangi mexanizmi yaratildi. Prezidentimiz boshchiligidagi oddiy odamlar dardini eshitish tizimi ish boshladi. Pirovardida, necha yillardan buyon hal etilmay kelayotgan muammolarga yechim topildi. Xususan, mahallalarimiz obod qiyofa kasb etdi, yangi yo'llar qurildi, ichki yo'l-



lar ta'mirlandi, bog'chalar, maktablar bunyod etildi, ta'lim, sog'liqni saqlash tizimi tubdan isloh qilindi, aholini uy-joy bilan ta'minlash siyosati natijasida minglab yurtdoshlarimiz o'z uyiga ega bo'ldi.

**Ikkinchi o'zgarish:** qo'shni davlatlar bilan munosabatlarimiz ilqilashdi. Chegaralar ochildi, bordi-keldi yo'lga qo'yildi. Natijada bir ariq narida yashayotgan qarindoshlar bir-birining diydoriga to'ydil. Qalblardagi sog'inchi hissi yumshadi, dardlarga malham topildi.

**Uchinchi o'zgarish:** fuqarolik berilishi va pasport tizimidagi mantiqsiz tartibotga barham berildi. Uzoq muddat fuqaroliksiz yashagan minglab yurtdoshlarimiz Vatanni bo'ldi. Ularga O'zbekiston fuqarosi, degan yuksak sharaf berildi.

**To'rtinchi o'zgarish:** faol tadbirkorlik muhiti yaratildi. Bu mamlakatga xorijlik investorlarni jalb etish, o'zimizning tadbirkorlar faoliyatini rivojlantirish uchun zamin bo'ldi. Eng asosiysi, shu muhit tufayli minglab fuqarolarimiz ishli, doimiy daromad manbaiga ega bo'ldi. Bugun ularning oilasida farovonlik muhiti hukm surmoqda.

**Beshinchi o'zgarish:** majburiy mehnatga barham berildi, jamiyatimizning yangi qiyofasi shakllandi, xalqimiz dunyoga qarashi o'zgardi. Bu qutlug' o'zgarishlarni har kuni o'z hayotimizda, ko'cha-ko'ya, obod mahallalarda, oilalardagi to'kislik muhitida, xalqimiz hamjihatligi ruhida sezamiz.

Milliy-siyosiy bayramimiz bahona bu kabi islohotlarni yana ko'p sanasak bo'ldi. Eng muhimi, bugungi xalqimiz kechagi xalq emas. Bugun har birimizning hayotimizda bo'layotgan o'zgarishlar shukhi bizni yangi marralar sari chorlab turibdi. ...Kundan-kunga dong'i dos-ton — O'zbekiston! Qo'shiq ta'sirida xayolimizda fikrlar gu'j'gon o'ynaydi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Yangi O'zbekistonni barpo etish — bu shunchaki xohish-istak emas, subyektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslariga ega bo'lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy,

ma'naviy-ma'rifiy vaziyatning o'zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to'la javob beradigan obyekti zarurat" ekanini yana bir bor mushohada qilamiz.

Mustaqillik bizga yangi hayot bag'ishladi, barcha jabhada yuksalishga erishdik. Keyingi yetti yilda esa yangi taraqqiyot davriga qadam qo'ydik. Bu tarixan juda qisqa, lekin mazmunan elni yangilagan davrda biz xalqchil va demokratik tamoyillarga asoslangan buyuk o'zbek yo'liga asos soldik. Erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, xalqimiz farovonligini ta'minlashga ustuvor ahamiyat qaratildi.

**"O'zbekistonning har bir farzandi xalqimizning birlamligi, mamlakat yaxlitligi uchun kurashib yashashni o'z hayotining ma'nosi deb bilmog'i kerak! Biz bir bo'lsak — yagona xalqimiz, birlashsak — Vatanimiz!", deya ta'kidladi Prezidentimiz.** Darhaqiqat, biz birlashib, birgalashib katta yutuqlarga erishdik. Bugun taraqqiyotimizning yangi davriga qadam qo'ydik. Bu yo'lda Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarib, Taraqqiyot strategiyasidagi rejalariimiz ijrosiga kirishdik.

Konstitutsiyaviy islohotni amalga oshirdik. Tom ma'noda ijtimoiy davlat qurishga kirishdik.

Prezident saylovida xalqimiz o'z kelajagi uchun erkin ovoz berdi. "O'zbekiston — 2030" strategiyasini xalqimiz muhokamasidan o'tkazib oldik. Tez kunlarda qabul qilinishi kutilayotgan bu hujjatdagi 100 maqsad "Xalq xizmatidagi davlat" tamoyiliga asoslangani bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va shiddatli davr ruhida yashash har birimizdan juda katta mas'uliyat, to'xtovsiz harakat va ilg'or g'oyalarni talab qiladi. Shu ma'noda, dunyoni o'ziga chorlayotgan Yangi O'zbekiston ruhidan har birimiz kuch olamiz.

Bu yilgi Mustaqillik bayrami mohiyatiga **"Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!" g'oyasi singdirildi. Boisi, xalqimiz har bir kunni katta orzu-intilishlar bilan qarshi oladi. Oilalarda, mahallalarda yangi hayot uchun kurash ruhi keza boshladi.**

Davlatimiz rahbari bayram tadbirida qatnashgan xorijiy davlatlar elchilari, xalqaro tashkilotlar vakillari va chet ellik sheriklarga ham yangi O'zbekiston islohotlariga qo'llab-quvvatlayotgani uchun minnatdorlik bildirdi.

Aytish joizki, keyingi yillarda yangi O'zbekiston dunyoga ochildi, dunyo ham bizga ochildi. Tinchlikparvar, umumminnataqaviy bag'rikenglik siyosati tanlandi. Pirovardida, O'zbekiston tashabbuslari yuksak doiralarda e'tirof etilib, xalqaro miqyosda qo'llab-quvvatlanib boshladi.

Tantanalil tadbirida turkiy davlatlardan kelgan san'atkorlar ham ishtirok etdi. Ular aytgan qo'shiqlarda birlamlik va ahillik ruhi ufuurib turdi.

"Yangi O'zbekiston" bog'idan rang-barang mushaklar o'tildi. Niyatlar, orzu-umidlari jo'sh urdi. Qablarda tiaklar uyg'unlashdi: Ilohim, mustaqil va obod yurtimizga ko'z tegmasin, boshlagan ishlarimiz bardavom bo'lsin!

Shuning bilan "Yangi O'zbekiston" bog'ida mustaqilligimizning o'ttiz ikki yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan tantanalil bayram tadbiri yakuniga yetdi. Shodiyanalar ruhi yurtimiz bo'ylab davom etmoqda.

Ulug'bek ASOROV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

# SAMIMIY QUTLOVLAR

Boshlanishi 1-betda



**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga**

Hurmatli Shavkat Mirmonovich!  
Qozog‘iston xalqi nomidan va shaxsan o‘z nomimdan Sizni va qardosh O‘zbekistonni Mustaqillik kuni bilan qutlayman.

Suveren O‘zbekiston tarixidagi ushbu muhim kun xalqning birdamligi, mardligi va bunyodkorligini ifoda etadi, respublikaning davlatchiligini yanada mustahkamlash va uzoq muddatli taraqqiyotini ta‘minlashda beqiyos ahamiyatga ega.

Ishonchim komil, mamlakatingiz Siz belgilab bergan strategik yo‘nalishdan qat‘iy borib, keng ko‘lamli siyosiy islohotlar va ijtimoiy-iqtisodiy yangilanishlarni ro‘yobga chiqarar ekan, barqaror o‘shir yo‘lidan dadil harakatini davom ettiradi.

Xalqlarimizning tub manfaatlaridan, ko‘p asrlik do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik an‘analaridan kelib chiqib, men Qozog‘iston — O‘zbekiston strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada chuqurlashtirishga ustuvor e‘tibor bermoqdaman.

Birgalikdagi sa‘y-harakatlar bilan ko‘p qirrali hamkorlikning ulkan salohiyatini qardosh xalqlarimiz ravnaqi hamda Markaziy Osiyoda barqarorlik va farovonlikni ta‘minlash yo‘lida ro‘yobga chiqara olishimizga ishonaman.

Ushbu fayzli kunda Sizga, hurmatli Shavkat Mirmonovich, mas‘uliyatli davlat faoliyatingizda yangi muvaffaqiyatlar, qardosh O‘zbekiston xalqiga baxt-saodat va ravnaq tilayman.

Hurmat bilan,

**Qosim-Jomart TOQAYEV, Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti**



**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga**

Hurmatli Shavkat Mirmonovich!

Sizni va qardosh O‘zbekiston xalqini O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 32 yilligi bilan tabriklashga ijozat bergaysiz.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston ichki va tashqi siyosatda ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi va xalqaro hamjamiyatda munosib o‘rin egalladi.

Ishonchim komil, Sizing oqilona rahbarligingizda Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar qardosh O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlanishiga, uning farovonligi yo‘lida qo‘yilgan marralar erishilishiga xizmat qiladi.

Mustaqillik yillarida mamlakatlarimiz do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik ruhida keng qamrovli strategik sheriklikni rivojlantirishda yaxshi natijalarga erishdi.

O‘rtamizdagi ishonchli munosabatlar bundan buyon ham davlatlarimizning mustahkamlanishi va har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi, deb ishonaman.

Ushbu fursatdan foydalanib, Sizga, hurmatli Shavkat Mirmonovich, mustahkam sog‘liq va baxt-saodat, O‘zbekiston xalqiga esa farovonlik va ravnaq tilayman.

Chuqur hurmat bilan,

**Sadir JAPAROV, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti**



**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga**

Qadri Shavkat Mirmonovich!

Tojikiston xalqi nomidan va shaxsan o‘z nomimdan Sizga, butun O‘zbekiston Respublikasining do‘st xalqiga mamlakatingiz milliy bayrami — Mustaqillik kuni munosabati bilan samimiy tabriklarimiz va ezgu tilaklarimizni yo‘llash menga katta mamnuniyat bag‘ishlaydi.

Mustaqillik tufayli qardosh O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda, xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlashda katta muvaffaqiyatlarga erishdi.

Bu yutuqlarning barchasi ko‘p jihatdan Sizing O‘zbekiston xalqi tomonidan keng qo‘llab-quvvatlanayotgan muvaffaqiyatli davlat siyosatingiz bilan bog‘liq.

O‘zbekiston bilan strategik sheriklik va ittifoqchilikni keng miqyosda va har tomonlama rivojlantirish Tojikiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlarida markaziy o‘rinni egallaydi.

Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi hamkorlikning barcha yo‘nalishlarida — siyosat, savdo va iqtisodiyot, madaniy-gumanitar va xavfsizlik sohalarida barqaror rivojlanish sur‘ati ta‘minlandi.

Ishonchim komil, birgalikdagi sa‘y-harakatlar bilan biz, azaliy do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik rishtalariga, mavjud salohiyatga tayangan holda Tojikiston — O‘zbekiston konstruktiv hamkorligini qardosh xalqlarimiz farovonligi yo‘lida bundan buyon ham ilgari suramiz.

Chin qalbidan Sizga, hurmatli Shavkat Mirmonovich, mustahkam sog‘liq va barcha ishlaringizda yangi muvaffaqiyatlar, do‘st O‘zbekiston xalqiga esa musaffo osmon, farovonlik va bardavom taraqqiyot tilayman.

Chuqur hurmat bilan,

**Emomali RAHMON, Tojikiston Respublikasi Prezidenti**



**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga**

Hurmatli Shavkat Mirmonovich!

O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni munosabati bilan Sizga va mamlakatingiz qardosh xalqiga samimiy tabriklar va eng ezgu tilaklarni yo‘llash men uchun sharaf.

Bugun O‘zbekiston Respublikasi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sohalarida taraqqiyot va ravnaq yo‘lidan dadil bormoqda. Yaqin qo‘shnimizning yutuqlaridan xursandmiz.

Turkmaniston va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasidagi bugungi ikki tomonlama munosabatlar konstruktiv va barqaror tusga ega ekanini mamnuniyat bilan qayd etmoqchiman. Ular ko‘plab yo‘nalishlarda rivojlanmoqda. Birgalikdagi sa‘y-harakatlarimiz bilan Turkmaniston bilan O‘zbekiston o‘rtasidagi qardoshlik

munosabatlari xalqlarimiz farovonligi yo‘lida rivojlanishi va mustahkamlanishiga qat‘iy ishonaman.

Ushbu imkoniyatdan foydalanib, Sizga, hurmatli Shavkat Mirmonovich, mustahkam sog‘liq, baxt-saodat, O‘zbekiston Respublikasining qardosh xalqiga esa tinchlik-osoyishtalik, bardavom ravnaq va taraqqiyot tilab qolaman.

Chuqur hurmat ila,

**Serdar BERDIMUHAMEDOV, Turkmaniston Prezidenti**



**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga**

Hurmatli Shavkat Mirmonovich!

Sizga va Siz orqali qardosh O‘zbekiston Respublikasi xalqiga mamlakatingizning Mustaqillik kuni munosabati bilan samimiy qutlovlarim va eng ezgu tilaklarimni bildirish men uchun sharaf.

O‘tgan yillarda O‘zbekiston davlati o‘z taraqqiyotida katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Bugun mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va xalq farovonligini oshirishga qaratilgan misli ko‘rilmagan yangilanishlar amalga oshirilmoqda.

Turkmaniston va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasidagi munosabatlar siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalarida yangi mazmun bilan boyib borayotganini mamnuniyat bilan ta‘kidlayman. Ishontirib aytamanki, biz Turkmaniston – O‘zbekiston munosabatlariga alohida ahamiyat qaratamiz hamda ularni sifat jihatidan yanada yuqori darajaga olib chiqishga tayormiz.

Ushbu fursatdan foydalanib, hurmatli Shavkat Mirmonovich, Sizga mustahkam sog‘liq, baxt-saodat, mas‘uliyatli faoliyatingizda muvaffaqiyatlar, qardosh O‘zbekiston xalqiga esa tinchlik, taraqqiyot va bardavom ravnaq tilayman.

Chuqur hurmat ila,

**Gurbanguli BERDIMUHAMEDOV, Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi**



**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga**

Hurmatli Prezident janoblari!

Qardosh O‘zbekiston Respublikasining milliy bayrami — Mustaqillik kuni munosabati bilan Sizga va Siz orqali xalqingizga samimiy tabrik va eng ezgu tilaklarimni bildiraman.

Bugun Sizing rahbarligingiz va chuqur o‘ylangan siyosatingiz tufayli O‘zbekiston, davlatchilik an‘analari va tamoyillariga sodiq qolgan holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo‘lidan olg‘a bormoqda. Ayniqsa, mamlakatingiz erishayotgan muhim yutuqlarni, xalqaro maydonda erishgan nufuzini, Sizing rahbarligingiz ostida yildan-yilga katta muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritayotganini ko‘rish bizga mamnuniyat bag‘ishlaydi.

Mintaqada ro‘y berayotgan jarayonlardagi faol ishtiroki va pozitsiyasi tufayli O‘zbekiston eng nufuzli xalqaro tashkilotlarning uchrashuvlari va sammitlarini yuqori darajada o‘tkazmoqda.

Ozərbayjon va O‘zbekistonni haqiqiy do‘stlik va qardoshlik rishtalari bog‘lab turibdi.

Mustahkam asosga qurilgan, faqat oldinga qarab rivojlanayotgan, aniq mazmun bilan boyib borayotgan ikki tomonlama munosabatlarimiz va strategik sherikligimizdan xursandmiz.

O‘rtamizdagi ochiq va faol siyosiy muloqot, oliy darajadagi o‘zaro tashriflarimiz, muntazam uchrashuvlar, imzolangan hujjatlar, muvaffaqiyatli amalga oshirilgan qo‘shma loyihalar, shu jumladan, Hukumatlararo komissiya faoliyati hamkorligimizning ijobiy sur‘atini ta‘minlash va sheriklikning yangi yo‘nalishlarini belgilashda muhim o‘rin tutmoqda.

Bir necha kun avval Ozarbayjonga amalga oshirgan davlat tashrifingiz Ozarbayjon — O‘zbekiston munosabatlari tarixida yangi sahifa ochdi hamda strategik sherikligimizning har tomonlama rivojlanishiga kuchli sur‘at bag‘ishladi.

Ishonchim komil, sa‘y-harakatlarimizni davlatlararo munosabatlarimizni yanada mustahkamlash, hamkorligimizning ustuvor yo‘nalishlarini rivojlantirishga qaratib, xalqaro tashkilotlar, ayniqsa, Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi muvaffaqiyatli birgalikdagi faoliyatimizni davom ettiramiz va kengaytiramiz.

Ushbu muhim kunda Sizga mustahkam sog‘liq, baxt-saodat, faoliyatingizda muvaffaqiyatlar, qardosh O‘zbekiston xalqiga abadiy tinchlik va ravnaq tilayman.

Hurmat bilan,

**Ilhom ALIYEV, Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti**



**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga**

Hurmatli Shavkat Mirmonovich, qadri qardoshim!

O‘zbekiston Respublikasining milliy bayrami – Mustaqillik kuni bilan chin dildan muborakbod etaman.

Sizing dono rahbarligingiz tufayli mamlakatingiz keng ko‘lamli islohotlar yo‘lidan dadil bormoqda, uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yuksalmoqda, xalqaro maydondagi o‘rni mustahkamlanmoqda.

Konstitutsiyaga o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha referendum va Prezident saylovi natijalari Siz O‘zbekistonni modernizatsiya qilish bo‘yicha tanlagan yo‘l naqadar to‘g‘riligini isbotladi.

Hurmatli Shavkat Mirmonovich, Sizga va qardosh O‘zbekiston xalqiga tinchlik-osoyishtalik, ravnaq, ko‘zlangan marralarga erishishda muvaffaqiyatlar tilayman.

Hurmat bilan,

**Nursulton NAZARBOYEV, Qozog‘iston Respublikasining birinchi Prezidenti**



**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga**

Prezident Janoblari!

O‘zbekiston Respublikasining milliy bayrami munosabati bilan Sizni va o‘zbek xalqini o‘zim hamda vatandoshlarim nomidan chin yurakdan tabriklayman.

So‘nggi oylarda Germaniya va O‘zbekiston o‘rtasidagi munosabatlar yuqori darajadagi ko‘plab tashriflar orqali ham yanada faollashdi.

Sizing joriy yil may oyida Berlinga qilgan tashrifingizni alohida ta‘kidlamoqchiman. Men ushbu tashrifni mamnuniyat bilan eslayman. Shuning uchun men tez orada yana uchrashish va fikr almashinuvimizni davom ettirish imkoniyatidan juda xursand bo‘lar edim.

Iqlim inqirozi va yirik global chaqiriqlar sharoitida faollashgan Germaniya — O‘zbekiston hamkorligi alohida muhim ahamiyatga ega.

Qayta saylanganingizdan so‘ng hukumatigizning islohotlar kursini davom ettirish istagidingizdan mamnunman va bu borada Sizga muvaffaqiyatlar tilayman. Sizni ishontirib aytamanki, Germaniya Sizni hamkor sifatida qo‘llab-quvvatlashda davom etadi. Sizga eng ezgu tilaklarimni, o‘zbek xalqiga erkinlik, xavfsizlik va farovonlikdagi osoyishta kelajak tilayman.

**Frank-Valter SHTAYNMAYER, Germaniya Federativ Respublikasi Prezidenti**



**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga**

Hurmatli Prezident janoblari!

O‘zbekiston mustaqilligining 32 yilligi munosabati bilan Sizga va butun O‘zbekiston xalqiga tabriklarim, baxt-saodat va ravnaq tilaklarimni katta mamnuniyat bilan yo‘llamoqdaman.

O‘zbekiston xalqi uchun alohida ahamiyatga ega ushbu kunda Fransiya mamlakatingiz mustaqilligi, suvereniteti va hududiy yaxlitligiga sodiq ekanini tasdiqlayman.

Joriy yilda mamlakatlarimiz 1993-yil 27-oktabr kuni imzolagan Do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risidagi shartnomaning o‘ttiz yilligi ham nishonlanmoqda. O‘tgan davrda Fransiya — O‘zbekiston do‘stligi ancha mustahkamlandi, buni yaqin oylarda Luvrda va Arab dunyosi institutida tashkil etilgan hamda O‘zbekistonning bo‘mdayni merosini namoyish etgan, yurtdoshlarimning O‘zbekistonga qiziqishini oshirgan va yurtigizga tashrif buyurishga undagan ajoyib to‘g‘ragsmalar ham tasdiqladi.

Fransiya kompaniyalari ishtirokidagi, ayniqsa, suv ta‘minoti, qayta tiklanuvchi energiya, kommunal xizmat va turizm sohalaridagi bir qator loyihalardan mamnunman. Fransiya Siz boshlagan ko‘plab islohotlarni kuzatmoqda, qonun ustuvorligini va mamlakatingizning demokratik asoslarini mustahkamlash borasidagi sa‘y-harakatlarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Yaqin fursatda taklifingizga javoban global sherikligimizni yuqori darajada rivojlantirishni davom ettirish uchun O‘zbekistonga tashrif buyurishimga umid qilaman.

Hurmatli Prezident janoblari, Sizga bo‘lgan yuksak ehtiromimni qabul qiling.

Chuqur hurmat bilan,

**Emmanuel MAKRON, Fransiya Respublikasi Prezidenti**



**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga**

Janobi Oliyari!

Hindiston Hukumati, xalqi va shaxsan o‘z nomimdan O‘zbekiston mustaqilligining 32 yilligi munosabati bilan Siz Janobi Oliylariga qizg‘in tabriklarim va ezgu tilaklarimni yo‘llayman.

Hindiston va O‘zbekiston Respublikasi tarixiy, tamadduniy va madaniy rishtalar bilan bog‘langan. Biz umumiy mintaqamizning tinchligi, xavfsizligi, taraqqiyoti va farovonligi uchun manfaatdor tomon va tabiiy hamkorlarimiz hamda birgalikda bu yo‘nalishda hal qiluvchi rol o‘ynashimizga ishonaman. O‘zbekiston xalqi tomonidan Sizga berilgan yangi mandat tufayli munosabatlarimiz yanada yangi hayotiy kuchga ega bo‘ladi.

Fursatdan foydalanib, Siz Janobi Oliylariga mustahkam sog‘liq va omonlik hamda O‘zbekiston Respublikasi xalqiga tinchlik, ravnaq va farovonlik tilab qolaman.

Janobi Oliyari, yuksak ehtiromlarimni qabul qilgaysiz.

**Drapadi MURMU, Hindiston Respublikasi Prezidenti**



**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga**

Assalomu alaykum va rohmatallohi va barokatuhu,

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik bayrami munosabati bilan Siz, Janobi Oliylariga eng samimiy tabriklarimiz va ezgu tilaklarimizni izhor etishdan bag‘oyat mamnunmiz.

Siz, Janobi Oliylariga sihat-salomatlik, Qardosh O‘zbekiston Respublikasi xalqiga esa yanada yuksalish va farovonlik tilaymiz.

Siz, Janobi Oliyari salomlarimiz va ehtiromlarimizni qabul qilgaysiz.

**Salmon bin Abdulaziz OI SAUD, Ikki Muqaddas masjid xodimi, Saudiya Arabistoni Podshohi**



**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga**

O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni munosabati bilan Siz, Janobi Oliylariga o‘zinning eng samimiy tabrik va qizg‘in tilaklarimni yo‘llash sharafiga muayassarligim meni cheksiz quvontiradi.

Siz, Janobi Oliylariga mustahkam sog‘liq, baxt-saodat, do‘st O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va xalqiga doimiy ravnaq, taraqqiyot tilab qolaman.

Kamoli ehtirom va ezgu tilaklar ila,

**Muhammad bin Zoid OI NAHAYON, Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti**



**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga**

Muhtaram Prezident janoblari!

Misr Arab Respublikasi nomidan Siz, Janobi Oliyari va do‘st O‘zbekiston xalqini Mustaqillik kuni munosabati bilan tabriklashdan mamnunman.

Misr O‘zbekiston bilan o‘tgan yil davomida muvaffaqiyatli rivojlanib borayotgan ikki tomonlama munosabatlarni yuksak qadrlaydi. Mamlakatlarimiz doimo o‘zaro ishonch, umumiy qadriyatlar va manfaatlariga ega bo‘lgan sohalarida doimiy muvofiqlashtirishga asoslangan hamkorlik munosabatlarini saqlab kelmoqda.

Shuningdek, Misr Markaziy Osiyodagi muhim va qadri hamkor sifatida O‘zbekiston bilan munosabatlarni mustahkamlash tarafdori ekanini yanada bir bor tasdiqlab, ikki do‘st xalqlarimiz farovon kelajagi yo‘lida yanada ko‘proq hamkorlikka erishish uchun barcha jabhalarda yaqin aloqalarni davom ettirishimizga chin dildan umid qilaman.

Hurmatli Prezident, Janobi Oliyari Sizga baxt-saodat, do‘st O‘zbekiston xalqiga taraqqiyot va farovonlik tilab qolaman.

Eng samimiy ehtiromimni qabul etgaysiz,

**Abdulfattoh as-SISI, Misr Arab Respublikasi Prezidenti**



**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga**

O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni munosabati bilan Siz, Janobi Oliyarinin hamda do‘st va birodar mamlakatingiz xalqini chin yurakdan tabriklayman.

Madaniy musharaklik va o‘xshash qadriyatlarining mavjudligi hamda oliy darajadagi delegatsiyalar almashinuvi o‘zaro hamkorlikning rivojlanishi va mustahkamlanishida sezilarli o‘rin tutdi.

Birgalikdagi sa‘y-harakatlar natijasida ikki davlat o‘rtasida o‘zaro manfaatlarini ta‘minlash hamda mintaq va jahonda tinchlik hamda xavfsizlikni mustahkamlash yo‘lidagi aloqalarning yanada rivojlanishiga guvoh bo‘lamiz, deb umid qilaman.

Qodir Egamdan Siz, Janobi Oliylariga sog‘liq va muvaffaqiyatlar, O‘zbekiston xalqiga esa baxt-saodat va farovonlik tilab qolaman.

**Sayid Ibrohim RAISIY, Eron Islom Respublikasi Prezidenti**



**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga**

Hurmatli Prezident janoblari!

Siz, Janobi Oliylariga O‘zbekiston Respublikasining milliy bayrami — Mustaqillik kuni munosabati bilan eng samimiy tilaklarimni izhor etishga ijozat bergaysiz.

O‘zbekiston Vengriyaning nafaqat siyosiy, iqtisodiy va madaniy hamkori, balki chinakam do‘stidir. Vengriya — O‘zbekiston hamkorligini mustahkamlashga qaratilgan sa‘y-harakatlarimiz xalqlarimiz manfaatlariga mosligiga qat‘iy ishonaman. O‘tgan davrda bir necha bor shaxsan uchrashganimiz hamda Siz, Janobi Oliyarinin va rafiqangizni Budapesht shahrida qabul qilganimdan mamnunman.

Ishontirib aytamanki, hukumatim strategik muloqotni yuqori darajada davom ettirishga hamda ikki tomonlama munosabatlarning mustahkamlashga xizmat qiladigan barcha tashabbuslariga bundan buyon ham sodiq bo‘ladi.

Sizga mustahkam sog‘liq, mas‘uliyatli faoliyatingizda muvaffaqiyatlar tilayman.

**Viktor ORBAN, Vengriya Bosh vaziri**

*Quyidagilar ham o‘z tabriklarini yo‘llagan:*

Belarus Respublikasi Prezidenti **Aleksandr Lukashenko**, Saudiya Arabistoni Valiahdi, Vazirlar Mahkamasi Raisi **Muhammad bin Salmon bin Abdulaziz OI Saud**, Birlashgan Arab Amirliklari Vitse-prezidenti, Bosh vaziri Dubay amirligi hokimi **Muhammad bin Roshid OI Maktum**, Birlashgan Arab Amirliklari Vitse-prezidenti, Bosh vaziri o‘rinbosari, Prezident ishlari bo‘yicha vaziri **Mansur bin Zoid OI Nahayon**,

Qatar Davlati Amiri **Tamim bin Hamad OI Soniy**, Qatar Davlati Amiri o‘rinbosari **Abdulla bin Hamad OI Soniy**, O‘mon Sultoni **Heysam bin Tariq**, Vengriya Prezidenti **Katalin Novak**, Yaponiya Imper



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news

# VATAN OZODLIGI YO'LIDA SHAHID KETGANLAR XOTIRASI MANGU BARHAYOTDIR

Boshlanishi 1-betda

Xiyobondagi ramziy qabr yonida ham Qur'on tilovat qilindi.

— Har safar bu yerga kelib, xalqimiz ozodligi yo'lida qurbon bo'lgan jasur bobolarimizni eslab, ko'nglimiz taskin topadi. Ularni xotirlash, ezgu ishlarni davom ettirish biz uchun ham qarz, ham farz. Qatag'on qilingan yetakchilarning taqdiri barchamizni mustaqilligimizni qadrlashga, uni asrab-avaylashga undaydi. Mana shunday mustaqillikda, tinchlikda yashashning o'zi Alloh taoloning katta marhamati, ne'mati. Buning uchun shukronalik bilan, uning qadriga yetish kerak, — dedi Prezident.

1937-1953-yillarda O'zbekistonda 100 ming odam qatag'onga uchrangani, ularning 13 ming nafari otib tashlangani yana bir bor yodga olindi. Afsuski, tazyiqlar bu bilan cheklanib qolmagan.

O'tgan asrning 80-yillarida ham minglab yurtdoshlarimiz adolatsizlik qurboni bo'lgan. "Paxta ishi", "o'zbek ishi" degan soxta ayblovlar bilan respublikamiz bo'yicha 40 ming kishi tergov qilingan, 5 ming nafari jinoyi javobgarlikka tortilgan.

Davlatimiz rahbari O'zbekistonga yigirma besh yil rahbarlik qilgan, o'zbek xalqining buyuk farzandi Sharof Rashidov ham o'limidan keyin siyosiy qatag'onga uchrangani alami ekanini aytdi.

Jadid bobolarimiz hayotini o'rganish, nohaq qatag'onga uchragan insonlar xotirasini abadiylashtirish bo'yicha xayri ishlar qilinyotgani ta'kidlandi.

— Bu borada adolatni tiklash bo'yicha ko'p ishlar qilyapmiz. Tarixchi olimlar ishtirokida komissiyalar tuzildi, arxiv hujjatlari o'rganilyapti. Oxirgi ikki yilda O'zbekiston Oliy sudi 850 nafardan ziyod, bu yil 240 nafar ana shunday jabrdiyda vatandoshlarimizning nomini oqladi. Bunday izlanishlarni hech qachon to'xtatmasligimiz kerak. Negaki haqiqatni xalqimiz bilishi kerak, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Bu davrga oid tarix yangi topilayotgan hujjatlar va ashyolar bilan boyib bormoqda. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha "Xotira" kitoblari tayyorlandi. Ularga 40 mingga yaqin vatandoshimiz to'g'risidagi ma'lumotlar kiritildi. Bu to'plamlar yaqin vaqt ichida chop etiladi.

Prezidentimiz shular bilan birga qatag'on qurbonlari yashagan mahallalarda ularning nomlari, faoliyatini muhrlab qo'yish zarurligini ta'kidladi.

— Muzeylar qildik, kitoblarni chiqyapti, ko'pchiligi oqlanyapti. Lekin shu bilan unutilishi kerak emas. Mening nazaramda, qatag'on qurbonlari tug'ilib o'sgan yoki bugun avlodlari yashayotgan mahallada, o'sha yerdagi maktabda ularning nomlarini yozib qo'ysak, ham savobli, ham ibratli ish bo'lardi. Qolaversa, mana shunday bayramlarda, xotira kunlarida xonadonlarini ziyorat qilish kerak. Nega urush qatnashchilarini uyiga boramiz-u, qatag'on qurbonlarini eslamaymiz?! Ularning har birining hayoti — qahramonlik. Biz buni o'rganib, tashviqot qilib, yoshlarimizga yetkazishimiz kerak, — dedi davlatimiz rahbari.

Mutasaddilarga jadid bobolarimiz tarixini o'rganayotgan tadqiqotchilarga maqsadli grantlar ajratish, ularni hujjatli va badiiy filmlar olish, matbuot va internet nashrlarda materiallar chop etish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

— Xalqimiz u davrni yaxshi bilishi, faxrlanishi kerak. Yoshlar "Bizning

bobolarimiz istiqloq orzusunda kurashgan, o'zini ayamagan, biz mustaqillik uchun nima qilyapmiz?" deb o'ziga savol berishi zarur. Mustaqillikning mustahkam zamini nima o'zi? Avvalo, vatanparvarlik, bilim, ma'naviyat. Jamiyatimizda ana shunday vatanparvarlik ruhini, shukronalik ruhini kuchaytirishimiz kerak, — deya ta'kidladi davlatimiz rahbari.

Shundan so'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston" bog'iga borib, Mustaqillik monumenti poyiga gulchambar qo'ydi.

Bu monument ona Vatanimiz, mard va jasur, tinchliksevar va mehnatkash, qahramon xalqimiz sharafiga qo'yilgan obida. U Prezidentimiz g'oyasi asosida davlatimiz mustaqilligining o'ttiz yilligiga bag'ishlab bunyod etilgan. Mamlakatimiz hayotidagi ulkan voqealar, xorijiy tashriflar chog'ida bu yerga gul qo'yish an'anaga aylangan.

Marosimda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati, Prezident Administratsiyasi, vazirlik va idoralar, Toshkent shahar jamoatchiligi vakillari ham ishtirok etib, monument poyiga gullar qo'ydi.

O'ZA

# INSONPARVARLIKNING YUKSAK NAMUNASI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev eng aziz umummilliy bayramimiz — Vatanimiz mustaqilligi e'lon qilinganining 32 yilligini nishonlash arafasida davlatimiz tomonidan olib borilayotgan gumanistik siyosatning amaliy tasdig'i sifatida "Jazo muddatini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'lga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni afv etish to'g'risida"gi Farmonni imzoladi.

Farmonga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 23-bandiga asosan so'dir etgan jinoyati uchun jazo muddatini o'tayotgan hamda qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'lga qat'iy o'tgan 286 nafar shaxs afv etildi.

Afv etilgan shaxslarning 109 nafari asosiy jazodan ozod etildi, 116 nafari jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilindi, 25 nafari ozodlikdan mahrum etish jazosi yengilroq jazo bilan almashtirildi. Shuningdek, 36 nafar shaxsga tayinlangan ozodlikdan mahrum etish

jazosining muddatlari qisqartirildi. Afv etilganlarning 39 nafari ayollar, 22 nafari 60 yoshdan oshgan erkak, 30 nafari chet el fuqarolari, 3 nafari taqiqlangan tashkilotlar ishtirokchilari tashkil etadi.

Farmon ijrosi yuzasidan afv etilgan shaxslarni oilasi va yaqinlari bag'riga qaytarish, ijtimoiy hayotga moslashib, foydali mehnat bilan shug'ullanishlari, sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yib, jamiyatda munosib o'rin topishlari uchun ularga ko'mak berish bo'yicha mas'ul vazirlik va idoralarga tegishli topshiriqlar berildi.

## XORIJIY DIPLOMATLAR FIKRI

# O'ZBEKISTON BUGUN HAQLI RAVISHDA MARKAZIY OSIYONING SIYOSIY, BIZNES VA MADANIY MARKAZIGA AYLANDI

31-avgust kuni "Yangi O'zbekiston" bog'ida O'zbekiston mustaqilligining o'ttiz ikki yilligiga bag'ishlangan bayram tantanalari bo'lib o'tdi. Unda xorijiy davlatlarning diplomatik vakolatxonalarini va xalqaro tashkilotlar rahbarlari qatnashdi.

O'ZBEKISTON O'ZINING MEHMONDO'STLIGI, GO'ZALLIGI BILAN MENI O'ZIGA ROM ETDI. BUGUN MAMLAKATLARIMIZ O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR DAVLAT RAHBARLARI — XITOIY RAISI SI SZINPIN VA O'ZBEKISTON PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOEVNING SHAXSIY HISSASI TUFAYLI JADAL RIVOJLANAYOTGANINI MAMNUNIYAT BILAN QAYD ETISH JOIZ.

**Munir MAMMEDZADE,**  
BMT Bolalar jamg'armasi  
(UNICEF)ning vakolatxonasi rahbari:

— BMT Bolalar jamg'armasi — UNICEF nomidan O'zbekiston hukumati va xalqini mustaqillikning 32 yilligi bilan samimiy tabriklayman.

Yaqinda UNICEFning O'zbekistonda vakolatxonasi tashkil etilganiga 30 yil to'ladi. Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridanoq biz O'zbekistondagi barcha bolalarning huquqlarini kafolatlash maqsadida davlat, nodavlat notijorat tashkilotlari, rivojlanish bo'yicha hamkorlikda ish olib boryapmiz.

O'zbekistonda ijtimoiy rivojlanish masalalariga alohida e'tibor qaratilayotganiga guvoh bo'lyapmiz va hukumatni bu borada erishilgan muvaffaqiyatlar bilan tabriklaymiz. Sog'liqni saqlash, ta'lim, aholini ijtimoiy muhofaza qilish kabi sohalarini rivojlantirishga hukumatning siyosiy irodasi va e'tiborini alohida ta'kidlamochim.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida 5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi sezilarli darajada kamaygani quvonardir. Bu sog'liqni saqlash tizimi infratuzilmasiga investitsiyalar va tibbiyot xodimlarining malakasiga alohida e'tibor samarasida amalga oshdi. Hamkor tashkilotlar, jumladan, UNICEF bilan birgalikda O'zbekiston bolalarni kasalliklarga qarshi emlash bo'yicha yuqori natijaga erishdi.

Davlat tomonidan maktabgacha ta'lim va bolalarni erta rivojlantirishni keng qamrovli hamda sifatli ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlari yuksak tahsinga sazovordir. UNICEF bu borada mamlakatning ishonchli hamkori hisoblanadi.

Samarali hamkorlik tufayli keyingi 5 yilda bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 3 barobar oshdi.



Maktabda sifatli ta'lim-tarbiya olish masalalariga alohida e'tibor qaratilayotgani, aholi, ayniqsa, ko'makka muhtoj qatlamlarni ijtimoiy himoya qilish borasidagi yutuqlar ham bizni quvontirmoqda. Biz investitsiyalar samarali ijtimoiy taraqqiyot va butun O'zbekiston xalqi farovonligiga xizmat qilishi uchun bolalar hamda o'sib kelayotgan avlod manfaatini yo'lida barcha yo'nalishlarda hamkorlikni davom ettirishga intilamiz.

Qonunchilikdagi so'nggi o'zgarishlar va hukumatning zo'raonlikning barcha ko'rinishlarini yo'q qilishga qaratilgan sa'y-harakati ham tahsinga sazovor. Ishontirib aytamanki, UNICEF bolalar va ayollarni zo'raonlikdan himoya qilish, shuningdek, bunday holatlarning oldini olish bo'yicha milliy hamkorlarni qo'llab-quvvatlashda davom etadi.

Men barcha hamkorlarga mamlakatdagi har bir bolaning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan ishlari uchun chuqur minnatdorlik bildirmochim.

O'zbekiston xalqini bugungi ulug' ayym — mamlakat mustaqilligining 32 yilligi bilan tabriklayman.

**Sharlott ADRIAN,**  
Yevropa Ittifoqi delegatsiyasi rahbari, elchi:

— Ushbu muhim kun — mamlakatimiz mustaqilligining 32 yilligi munosabati bilan barcha O'zbekiston fuqarolariga eng ezgu tilaklarni bildirish imkoniyati uchun tashakkur aytaman va xalqingizga farovonlik hamda baxt-saodat tilayman. Albatta, ushbu muhim kunning quvonchini o'zbek xalqi bilan baham ko'rish men uchun katta sharaf.

Shuningdek, O'zbekistonga islohotlarni davom ettirishni tilayman. Kun tartibi juda boy va biz Yevropa Ittifoqi sifatida ushbu sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlay olishimizda juda mamnunmiz. Bu, xususan, agrar sektorni, ekologiyani rivojlantirishga taalluqlidir, chunki biz iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini ko'rib turibmiz. Energetika sohasini rivojlantirish, atrof-muhitni muhofaza qilish ham muhim ahamiyatga ega.

O'tmishga nazar tashlaydigan bo'lsak, gender tenglikni ta'minlash masalasi g'oyat muhim, ayollarga nisbatan zo'raonlikning oldini olish bo'yicha qonunchilik bazasini mustahkamlash zarur, deb o'ylayman, bu borada jiddiy o'zgarishlarga erishildi. Biz davlat sektori bilan raqamlashtirish, jumladan, fuqarolarga xizmat ko'rsatishni soddalashtirish bo'yicha hamkorlik qilishdan mamnunmiz. O'zbekistonda tumsh darajasini oshirishga ko'maklashish maqsadida davlat organlari va fuqarolik jamiyati bilan hamkorlikni davom ettirishga ishonamiz.



**Yeji MATSULEVICH,**  
Vatanning O'zbekistondagi Muvaqqat ishlar vakili, yepiskop:

— Men O'zbekistonda 18 yildan beri ishlab kelayapman va o'tgan yillar davomida amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli yurtimiz qanchalik o'zgariganiga shohidman.

O'zbekistonda kelayotgan sayyohlar soni yildan-yilga ko'payib bormoqda. Ularning barchasi mamlakatimiz, uning tarixi, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent va boshqa shaharlarining boy merosidan hayratda qolmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston shaharlari o'zining madaniy jozibasini saqlab qolgan holda, zamonaviy qiyofa kasb etayotgani, boy merosi asosida barpo etilayotgani va taraqqiy etayotgani ham quvonardir.

Albatta, hali qilinadigan ishlar juda ko'p, davlatni yanada demokratlashtirish va iqtisodiy

ynotni liberalashtirish bo'yicha ulkan marralar olingan. Ushbu qutlug' ayym arafasida O'zbekistonga, butun o'zbek xalqiga o'z oldiga qo'yg'an maqsadlariga erishishda muvaffaqiyatlar, har bir o'zbek oilasiga, har bir yurt fuqarosiga tinchlik va farovonlik, baxt hamda omad tilayman!

**Abdujabbor RAHMONZODA,**  
Tojikiston elchisi:

— Qardosh o'zbek xalqini O'zbekiston Mustaqilligi kuni bilan chin qalbidan tabriklayman.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning dono siyosati tufayli so'nggi yillarda mamlakatimiz misli ko'rilmagan taraqqiyotga erishib, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar sohalarida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritdi.

Biz ushbu o'zgarishlar va davlat taraqqiyotining barcha jabhalarida ochilayotgan imkoniyatlarning guvohi bo'lib turibmiz. Davlat rivojining yanada muhim omiliga aylanib borayotgan mahalla singari fuqarolik jamiyatining muhim instituti qo'llab-quvvatlanayotgani bizda katta taassurot qoldirmoqda.

Ushbu bayram kunida qardosh O'zbekistonga tinchlik-osoyshtalik, farovonlik tilashdan bag'oyat xursandman.



**Yuy SZYUN,**  
Xitoy Xalq Respublikasi elchisi:

— O'zbekiston xalqini mamlakat mustaqilligining o'ttiz ikki yilligi bilan chin qalbidan tabriklayman. Men yurtimizga yaqinda kelganman va ilk bor Mustaqillik bayramida ishtirok etyapman.

O'zbekiston o'zining mehmondo'stligi, go'zalligi bilan meni o'ziga rom etdi. Bugun mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlar davlat rahbarlari — Xitoy Raisi Si Szinpin va O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning shaxsiy hissiy tufayli jadal rivojlanayotganini mamnuniyat bilan qayd etish joiz.

So'nggi yillarda O'zbekiston — Xitoy hamkorligi sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi va Xitoyning "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi ko'plab yaqinlashuv nuqtalariga ega. Ular doirasida yangi loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Ayni paytda O'zbekistonda xitoylik tadbirkor va sarmoyadorlar faol ishlayapti. Ular o'zbekistonlik hamkorlar bilan birgalikda O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish, aholi farovonligini ta'minlash va o'zaro tovar ayirboshlash hajmini oshirishga hissa qo'shmoqda.

Bizning birgalikdagi ishlarimiz sezilarli natijalar berishiga ishonaman. Xitoyning Toshkentdagi elchixonasi mamlakatlarimiz o'rtasidagi yaqin aloqalar va hamkorlik uchun ko'prik bo'lib, barcha sa'y-harakatlarni safarbar qilishga tayyor.



O'zbekistonga ravnaq va qudrat, xalqingizga esa baxt va farovonlik tilayman!

**Leonid MARINICH,**  
Belarus elchisi:

— O'zbek xalqini eng ulug' bayrami — Mustaqillik kuni bilan chin qalbidan tabriklayman.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston tubdan o'zgariganini alohida ta'kidlash joiz. Mamlakatimiz Markaziy Osiyoda yetakchiga aylandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev olib borayotgan siyosat iqtisodiy yuksalish, mamlakatning Osiyo markazi sifatida siyosiy tan olinishi xalqaro tashabbuslarga erishish imkonini berdi.

Bugungi kunda O'zbekiston haqli ravishda Markaziy Osiyoning nafaqat siyosiy, balki biznes va madaniy markaziga aylandi.

Qardosh o'zbek xalqini muhim sana — O'zbekiston mustaqilligining 32 yilligi bilan chin qalbidan tabriklayman! Tinchlikni ta'minlash va mamlakat taraqqiyoti hamda o'zbek xalqi farovonligini yuksaltirish yo'lidagi keng ko'lami islohotlarni amalga oshirishda yanada muvaffaqiyatli tilayman!

"Dunyo" AA



**Musa JAMANBOYEV,**  
Qirg'iziston elchisi:

— O'zbekiston uchun eng ulug' va eng aziz bayrami — Mustaqillik kuniga bag'ishlangan tantanali marosimda ishtirok etganimdan xursandman. Mustaqillik har bir davlatning asosiy boyligidir. Bugun Qirg'iziston ham o'z mustaqilligining 32 yilligini nishonlammoqda.

Biz bir mintaqa — Markaziy Osiyo mamlakatlari, yaxshi qo'shnilar sifatida bir-birimizning muvaffaqiyat va yutuqlarimizdan doimo quvonamiz. Yurtlarimizda doimo tinchlik bo'lsin, xalqlarimiz farovon bo'lsin.

Mamlakatlarimiz rahbarlari o'rtasidagi siyosiy iroda va yaqin shaxsiy munosabatlar tufayli O'zbekiston bilan Qirg'iziston o'rtasida hamkorlik bugungi kunda barcha yo'nalishlarda jadal rivojlanmoqda.

O'zbekiston xalqiga tinchlik va farovonlik, o'z oldiga qo'yg'an ulkan maqsadlariga erishishni chin dildan tilayman!





www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official

NUQTAYI NAZAR

# YANGILIKKA INTILMASLIK SABABI

## Yoxud o'qituvchi qachon sifatli ta'lim beradi?



**Uzoqboy BEGIMQULOV,**  
pedagogika fanlari doktori,  
professor

**Maktab ta'limi masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida tizimdagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha strategik vazifalar belgilab berildi. O'qitish sifatini oshirish, muallimlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kasbiy rivojlanishi uchun sharoitni kengaytirish bo'yicha qator tashabbuslar e'lon qilindi.**

yetdi, 10 million so'mdan yuqori oyliklari soni mingdan oshdi. Shuningdek, 2 mingga yaqin muallimga vazir jam'arimasidan qo'shimcha ustama to'lanmoqda.

Maktab ta'limidagi islohotlarning pirovard maqsadi ta'lim sifatini oshirish ekan, asosiy masala baribir o'qituvchilar va ularning pedagogik mahoratiga borib taqalaveradi. Shu bois, bugun pedagoglarning kasbiy rivojlanishi uchun sharoitni kengaytirish, hali foydalanimagan imkoniyatni ishga solish, oliy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash mazmunini transformatsiyalash kabi masalalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

### Kasbiy rivojlanish mo'may daromad degani

Yig'ilishda o'qituvchilarni kasbiy rivojlanish sharoitini kengaytirish bo'yicha qator tashabbuslar e'lon qilindi. Endi maktablarga pedagoglarni ishga qabul qilish, malakasini oshirish va malaka toifasini berish tizimi takomillashtirildi. Ishga qabul tanlov asosida bo'ladi. Ilk bor o'qituvchi vazifasiga ishga qabul qilinganlar bir yil o'qituvchi-stajyor bo'lib ishlaydi. Yil yakuni bo'yicha kasbiy sertifikat



### Talab emas, zarurat

Ayni paytda umumta'lim maktablarda faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar soni 515 mingdan ziyod. Ularning bilimi va mahoratini oshirishda yangi usul va yo'nalishlar keng qo'llaniladi. Natijada muallimlarning kasbiy mahoratida o'zgarish sezilmoqda. Toifaga ega pedagoglar salmog'i 43,8 foizdan 64,8 foizga yetgani qapimiz tasdiqi.

2021-yildan boshlab o'qituvchilar malakasini oshirish davriyligi 5 yildan bir yillik davrga o'tkazildi. Ya'ni muallimlarning har yili bir marotaba bir haftalik kurslarda o'qishi yo'lga qo'yildi. Uzlusksiz malaka oshirishning muqo-bil shakllari joriy etildi. Shuningdek, hayot davomida ta'lim olish tamoyili asosida ishlab chiqilgan "Uzlusksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasida pedagoglar onlayn malaka oshirish imkoniyatiga ega bo'ldi.

O'qituvchilarni kasbiy rivojlantirish bo'yicha navbatdagi yangi imkoniyatlar mavjud. Ish joyida mustaqil malaka oshirish shakllari, jumladan, maktablardagi tajribali pedagoglar metodikasini o'rganish, ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish, qisqa muddatli o'quv kurslarida ishtirok etish orqali o'zini o'zi kasbiy rivojlantirish mexanizmlarini joriy etish zarur.

Amaldagi onlayn kurslar tinglovchilarning pedagoglar bilan yuzma-yuz muloqotini istisno qiladi. Bu esa, o'z navbatida, masofaviy kurslarni faqat umumiy bilimni oshirishga yo'naltiradi. O'qituvchining kompetensiyasini aniqlash, yetishmayotgan ko'nikmalarni samarali shakllantirish imkoniyatini bermaydi.

olish talabi qo'yiladi. Bu orqali pedagogika oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash sifatiga ham xolisona baho berish imkoniyati paydo bo'ladi.

Malaka toifalarini olish esa ikki bosqichli sinov orqali amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda muallimlarning bilim darajasi, ikkinchi bosqichda esa kasbiy mahorat baholanadi.

Bilimi va kasbiy mahoratidan kelib chiqib, o'qituvchilar malakasi tabaqalashtirilgan holda oshiriladi. Har yili kasbiy mahorat diagnostikasi o'tkaziladi va ehtiyojdan kelib chiqib, keyingi yilga uzluksiz individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi belgilab beriladi. Shuningdek, o'qituvchilar malakasini oshirish kurslarining davomiyligi pedagogning toifasi, dars beradigan fanlarining xususiyati va kasbiy mahorat darajasidan kelib chiqib belgilanadi.

Alohida e'tibor ta'lim mazmuniga qaratiladi. Bu jarayonda ustuvorlik fanlarni o'qitish metodikasiga yo'naltiriladi. Shuningdek, an'anaviy va masofaviy (onlayn) malaka oshirish shakllari uyg'unlashgan, yakuniy baholashda tinglovchining shaxsiy ishtiroki talab etiladigan integrallashgan tizim joriy etiladi.

### No'noq kadr maktabga kerak emas

Ayrim hududlarda matematika, fizika, kimyo, informatika, ingliz tili va boshqa chet tillarni o'qitish bo'yicha o'qituvchilar yetishmovchiligi kuzatilmoqda. Ayniqsa, ta'lim boshqa tillarda olib borilayotgan maktablarda muammo ancha jiddiy. Endi pedagogika

oliy ta'lim muassasalariga talabalarni qabul qilish hududning ehtiyojidan kelib chiqib, davlat maqsadli buyurtmasi asosida amalga oshiriladi.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilar tayyorlash sifatini oshirishga talab kundan-kunga ortmoqda. Bugun yurtimizdagi davlatga tegishli 14 pedagogika oliy ta'lim muassasasida 27 ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'qituvchilar tayyorlanayapti.

OTMlardagi o'quv jarayoni mazmunan (malaka talablari, o'quv rejasi, fan dasturlari) talablarida amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga to'liq moslashtirilgan. O'quv-uslubiy jarayonning axborot ta'minotini yangi ma'lumot va bilimlar bilan to'ldirib borish yetarli darajada emas. Oliy pedagogika ta'lim mazmunini shakllantirish bo'yicha zamonaviy ilmiy tadqiqotlar ko'lami va natijadorligi pastligicha qolmoqda. Ilmiy izlanishlar maktabgacha va maktab ta'limining dolzarb masalalariga yo'naltirilgan.

Shuningdek, pedagog kadrlar tayyorlash mazmunini tekzor yangilash darajasi maktabgacha va maktab ta'limidagi islohotlardan orqada qolyapti. Fanlarni o'qitish metodikasi zamonaviy talablarga yetaricha javob bermaydi. Oliy pedagogika ta'lim mazmunida tarbiya metodikalarini o'qitish ulushi yetarli emas.

Oldinda oliy pedagogika ta'lim mazmunini transformatsiyalash, zamonaviy ta'lim texnologiyalari va metodikalarini joriy etish bo'yicha qilinadigan ishlar juda ko'p. Avvalo, oliy pedagogika ta'lim mazmunini amaliy kompetensiyalar (ko'nikmalar)ni shakllantirishga yo'naltirish, loyihaviy o'qitishni joriy etish, har bir amaliy mashg'ulot mavzusini maxsus keyslar bilan ta'minlash, talabalarni real pedagogik masalalar ustida ishlashga o'rgatish zarur.

Talabalarni har bir mashg'ulotda bilimlarni mustaqil egallashga, yangi innovatsion fikrlar taklif etishga o'rgatish, ta'lim maqsadlari aniq belgilangan o'quv materialarini oldindan yetkazish, ma'ruzalarni qisqartirish, tizimli va tanqidiy tahlilni, mustaqil qaror qabul qilishni amaliy mashg'ulotlar, kurs loyihalari, kurs ishlarining barchasida talab qilish maqsadga muvofiq. Shuningdek, pedagogika ta'lim yo'nalishlari o'quv rejasida kamida 50 foiz yuklamani mutaxassislik fani bo'yicha metodik tayyorgarlikka ajratish kerak.

### Tarbiya metodikasi kuchli bo'lsa...

Bugungi o'qituvchi nafaqat fani bo'yicha zamonaviy bilimlarga ega, balki milliy va umuminsoniy qadriyatlariga asoslangan tarbiya metodikasini ham chuqur o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Buning uchun oliy ta'limda ularning zamonaviy tarbiya metodikalarini o'zlashtirishga erishishimiz, maktablarda sinf rahbarligini olib borish, jumladan, ota-onalar bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish dardkor.

Shiddatli dunyoda yoshlarimizni yot g'oyalardan asrash, milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni ular ongiga singdirishning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish, bu jarayon ilmiy asoslangan tarbiya metodikalarini yaratishni talab etyapti.

Yig'ilishda o'quvchilar tarbiyasiga oila va mahallalarni tizimli jalb etish bo'yicha ko'rsatma berildi. Ham ta'lim muassasasi, ham oila, ham mahalla yoshlar tarbiyasiga hamijahat bel bog'lama ekan, natija bo'lmaydi. Buning uchun ularga tarbiyaviy ishlar bo'yicha metodik yordam ko'rsatish ishlarini tashkillashtirish maqsadga muvofiq.

O'qituvchilar va ota-onalar uchun tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish bo'yicha maxsus adabiyotlar yaratish, tarbiyaviy ishlarining tashkiliy-metodik ta'minotini takomillashtirish lozim. Ushbu maqsadga maktab o'qituvchilari-ga sinflar bo'yicha "Tarbiyaviy ishlar metodikasi", ota-onalar uchun "Ota-onalar universiteti: farzand tarbiyasi" nomli turkum metodik qo'llanma va tavsiyonomalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Shu bois, tarbiya metodikasini ishlab chiqishga olimlarimizni birlashtiradigan maydoncha yaratishimiz zarur.



### FAXR

# BITIRUVCHILARNING BARCHASI TALABA BO'LDI

**Qarshi shahridagi 1-ixtisoslashtirilgan maktab-internati faoliyat boshlaganiga endigina bir yil to'ldi. Ammo maktabning natijalari qisqa fursatda ko'pchilikning e'tiborini jalb etdi.**

Maktabda o'qish boshlangach, oradan ikki-uch oy o'tishi bilan o'quvchilarning turli tanlovlarda, fan olimpiadalarida faol ishtiroki, yuqori o'rinlarni qo'lga kiritayotgani haqida xushxabarlar tarqaldi. Yaqinda tarqalgan yangilik esa maktabning obro'sini yanada oshirdi. Joriy yilda ta'lim muassasasini tamomlagan 22 o'quvchining barchasi oliy o'quv yurtlari talabaligiga qabul qilindi. Qanday qilib deysizmi? Biz ham shu savolga javob topish istagida maktab-internatda bo'ldik.

### "O'qituvchilarimizning maoshi ming dollar!"

Bilim maskaniga tashrif buyurgan kishi o'quvchilarning bilim olishi uchun yaratilgan sharoitlarni ko'rib, ko'zi quvnashi tabiiy. Boisi, barcha o'quv va laboratoriya xonalari, kutubxona zamon talablariga mos ta'mirlangan, shinam va yorug'. Jihozlar talab darajasida.

Yangi tashkil etilgan maktabimizda 384 o'quvchi bo'lsa, shundan 22 nafar ilk qaldirg'ochimiz 11-sinfni bitirib, oliy-gohlarga o'qishga kirdi, — deydi ta'lim maskani rahbari Nozima Oripova. — Bir yildayoq yaxshi natija ko'rsatib, o'quvchilarimiz talaba bo'lgach, ko'pchilik orasida savollar paydo bo'ldi. Ba'zilar aslida oldindan o'quv markazlarida tayyorlanib yurgan bolalarni maktabga olishgan, degan gaplarni qildi. Lekin aslida, buning tagida katta mehnat yotibdi. Jumladan, o'qituvchilarning barchasi tanlov asosida kelgan. Belgilangan bosqichdan o'ta ol-



gan pedagoglarga ishga qabul qilindi. Ular maktabimizda ish boshlaganida aksariyati oddiy o'qituvchi edi. Boshqa maktablardagi muallimlar qatorida maosh olardi. Keyinchalik o'z ustida ishlashdi, harakat qildi. Bugun deyarli barchasi oliy toifali. Shuningdek, yil davomida turli tanlovlarda, xalqaro musobaqalarda o'quvchilarni bilan ishtirok etib, sertifikatlarni qo'lga kiritdi. Natijada hozir fan o'qituvchilarimizning barchasi ming dollar miqdorida, undan ham ortiq maosh olish darajasiga chiqdi.

Endi ko'pchilikni qiziqtirayotgan "bir yilda bu natijaga qanday erishildi?", degan savolga javob berib o'tsam. O'quvchilarimizning 95 foizi viloyatimizning turli hududlaridagi qishloqlardan kelgan. Boshida asosiy qismi ingliz tilini umuman bilmasdi. Shu bois, bolalarning bilimni oshirish, iqtidorini yuzaga chiqarishga astoydil kirishdik. Birinchi navbatda, ustoz va shogird o'rtasidagi ko'rinnas devorni olib tashlashga intildik. Har bir bola bilan yaqindan tanishib, ularga do'st kabi muomalada bo'lishga bel bog'ladi. Qiziqishlarini o'rgandik. Uzoq' bilan bir oyda bir-birimizni tushunib oldik.

### "Bizda dars erkin o'tiladi"

O'n ikki yillik ish tajribasiga ega Anvar Salomovning mutaxassisligi biologiya fani o'qituvchisi. Shu paytgacha umumta'lim maktabi, akademik litseyda faoliyat yuritgan. Maktab-internatdagi qizg'in jarayon uning faoliyatini yangi bosqichga chiqishiga asos bo'ldi.

O'qituvchi dars o'tishi uchun bu yerda barcha sharoitlar yaratilgan, — deydi Anvar Salomov. — Eng asosiysi, darsni erkin, o'zingiz xohlagan usulda o'tishingiz mumkin. Misol uchun, o'quvchi bir joydan boshqa joyga o'tib o'tirishi, yurishi mumkin. Shuningdek, mashg'ulotlarimiz amaliy bo'lishi natijasida har bir mavzuni bolaga yetkazib berish imkoniyati bor. Fanimiz qiziqarli. Gap faqat uni mahorat bilan o'tishda. Laboratoriya xonalarida mavzularni o'quvchilarimiz o'zi amaliyotda bajarib ko'radi. Bir-birining xatolarini o'zlariga to'g'ri, kamchiliklarini aytib boradi.

Maktab-internat direktori bergan ma'lumotga ko'ra, joriy yilgi 22 bitiruvchining 12 nafari davlat granti asosida, 10 nafari to'lov-shartnoma asosida talabalikka qabul qilingan.

O'tgan yili imtihon topshirib, 11-sinfga qabul qilingandim, — deydi maktab-internat bitiruvchisi Bunyod Norsafarov. — Bir yil davomida fanlarni yaxshi o'zlashtirib, faol o'quvchilar qatoriga chiqib oldim. Buning asosiy sababi ustozlarning mahorati dars o'tishi, har bir mavzuga qiziqitira olishida, deb bilaman. Bugun universitetga talabalikka tavsiya etildim. Bu men uchun juda katta sharaf. O'zim istagan, orzu qilgan yo'nalishga o'qishga kirganimdan mamnunman. Bilim bergan barcha ustozlarimga rahmat aytaman.

Doimo yangilikka intilishdan to'xtamaydigan maktab-internat jamoasi ayni paytda yangi o'quv yiliga jiddiy hozirlik ko'rmoqda.

**Akbar RAHMONOV,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

### ODAMLAR NIMA DEYAPTI?

# HAR YIL KUZDA SHU BO'LAR TAKROR...

**Yangi o'quv yili boshlanishiga sanoqli kunlar qoldi. Har yilgedek talabalar turar joyi va ijaraga uy topish muammosi ko'tariladi. Bu holat, ayniqsa, poytaxtda ko'proq seziladi.**

Sababi, eng ko'p OTM Toshkent shahrida joylashgan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, poytaxtdagi OTMlar soni 2021-yili 63 tani, o'tgan yili esa 72 tani tashkil etgan. Mamlakatimizda talabalar umumiy soni 1 million 24 mingdan oshgan va ularning 260 mingdan ko'prog'i poytaxtda o'qishini hisobga olsak, turar joy muammosiga duch keluvchilar ko'payganini bilish qiyin emas. Viloyatlarda bu muammo unchalik og'riqli tuyulmaydi. Qulay narxda ijaraga uy topish mumkin bo'lgani uchun talabalar turar joyiga talab ortib ketmaydi. Lekin Toshkentda uy ijarasi qimmat, talabalar turar joyi esa nisbatan kam.

2022/2023-o'quv yilidan boshlab ijara shartnomasi tuzgan talabalarga ijara summasining 50 foizini to'lab berish yo'lga qo'yilgani bu borada yaxshi yechim bo'lgandi.

O'tgan yili shu pallada ijara narxi 450-600 ming so'm atrofida edi. Hozir esa, 800 ming so'mdan 1 million so'mgacha ko'tarilgan. Narx-navoni ko'rib, "Insof bor joyda baraka bor", deging keladi.

Ijaraga uy qidirayotgan talabalar bilan suhbatlashganimizda ular o'qish uchun tinch sharoit va o'qishga qatnash uchun qulay manzil qidirishlarini aytishdi. Lekin metrogacha yaqin va xo'jayin birga yashamaydigan xonadonlar egasi kishi boshiga 85 dollargacha narx aytayapti", dedi. Bu pul milliy valyutamizga chaqilsa, 1 million so'mdan oshadi. Axir talaba uy sotib olgani emas, ijara davlat turgani keladi-ku.

Yana bir suhbatdoshimiz bunday deydi: "Uch yildan beri Toshkentda o'qiyman va har doim turar joy muammo bo'lib kelgan. Dallolsiz ijara xonadon topish tilla topgan



bilan barobar. Bir xonali kvartirani 250-300, ikki xonali 400 dollardan kamiga topilmaysiz. Kamiga 50 foiz vositachilik haqi to'lash kerakligi odamga alam qiladi".

Ba'zi ijarachilar ijara shartnomasi tuzishdan o'zini olib qochadi. To'g'ri, xususiy mulkka egalik qilish hammaning o'z inon-ixtiyorida, ammo davlat talabalar ijara to'lovining yarmini to'lab turganda yengillik yaratish o'rmi-ga narxni yil sayin ko'tarib, vaziyatdan foydalanishga urinayotganlarni ko'rib, odam ranjyidi. Bularning vijdoni qaysi bozorda ulgurji sotildi ekan-a, degan o'y o'tadi xayoldan.

**Eldor ABDULLAYEV,**  
O'zJOKU talabasi

## KO'NGIL KECHINMALARI

# BU KUNLARNI qanchalar ORZU QILGANMIZ...



**Xolmuhhammad KARIMIY,**  
O'zbekiston Yozuvchilar  
uyushmasi a'zosi

— Azim domla, mo'ljalni sal xato olgan ekanmiz-da, — deyman endi-endo yorishib kelayotgan ko'nna Bobotog' cho'qqilariga ishora qilib. Mashina esa g'izillab ketib boradi.

— Mo'ljalni-ku to'g'ri olgandik, ammo yo' ravnoligini charchatmadim, manzilni yaqin qildim. Sarqamishning yo'li ham tekis bo'lganida bormi, bundan ham erta kirib kelar-kanmiz.

Kindik qoni to'kilgan go'sha xayoli bilan allanechuk kayfiyat bo'ladi. Tong qorong'usida yo'l bo'yiga mashinani to'xtatib, uchalamiz ham mashinadan tushamiz. Ko'ganli qabrstoni — otamni ziyorat qilish uchun darvozasiga kelib cho'kkalaymiz. Qabr ahliga tilovlat qilib, ichkarilab otamning qabrbo'shiga chiqib bordik. Sog'inchlar, armonlar ila bir lahza ko'ngillarni parishonlik qoplaydi. Kenjatoy, erka o'g'il endi domla bo'lib ketgan. Ohista qadam tashlab, taqir yerga cho'kkalab, uzun qiroat qiladi. Ohanglardan mehr-muhabbat taraladi.

Ziyoratdan chiqqanimizda quyosh cho'qqilar ortidan bosh ko'targan, jonajon qishlog'im bilan yuz ko'rinish turibmiz. O'tgan asrning yetmishinchi yillarida kolxoz o'rtasidan o'tgan katta yo'lga bir marta asfalt yo'tiqizilganicha yarim asr shu holda qoldi. Uzoq yillar qarovsiz qolgan asfalt yo'l bora-bora tosh ko'chaga aylandi. Odam-ku odam, hatto yo'l ham e'tiborni, parvarishni talab etishining isboti bu. Oxirgi ikki-uch yil ichida bu yerlarga ham hurriyat shamollari yetib keldi.

Tep-tekis yo'l'dan g'izillab ketayotgan mashina chor atrofi daraxtzor go'zal qishloqlar o'rtasidan ketib borarkan, bolalik chog'larim ko'z o'ngimdan kinotasmadaya lip-lip o'ta boshladi. Bu yo'llardan pyoda son-sanoqsiz mara borib qaytdanmiz, ammo hamon uning quchog'ida hech qancha vaqt o'tmaganday yayrab ketadi ko'ngil. Bolalik tuyg'ularimizda dunyodagi eng katta, eng go'zal makon o'z qishlog'imiz, deya tasavvur qilganimiz. Quyosh, oy, yulduzlar-uz atrofigimizdagi tog'lar bizning sayyoramiz deb o'ylaganimiz. Bepoyon yavlovlar, biyday dalalar ko'zimizga cheksizlik bo'lib ko'ringan. Holdan toyguncha qo'y haydab, yavlovlarda yurganmiz-uz, hech poyoni yo'qdek ko'ringan. Bugun esa bolalik orzularimiz yashiringan qishloq yo'llaridan ketib borarankim, daraxtzorlar xayolimni o'g'irlaydi. Bolalik tuyg'ulari bilan bugungi kunim qorishib, ko'zlarim porlaydi. Yo'l ravnoligidan maftunkor ko'rinayotimikan?

Shirin xayollar og'ushida ketarkanman, hamrohlarimning ham gap-so'zlarida sog'inch va mehr yaqqol sezilib turardi. Yigirma kilometrcha yo'lni qanday yurib qo'ydik, hamrohlarimni bilmasdim-uz, men umuman sezmasdim. Qadrdon mahallam — o'ta uyiga yetib keldik. Qarindoshlar kelishimizni to'y qilib kutib oldi. Qishloqqa kelmaganimga ham ancha bo'lgan ekan, rosa yayradim. Hayajonlar bosilib, meh-



mondorchiliklar me'yoriga yetgach, kechki salqinda oilamiz to'ng'ichi Pardahoji bobo bilan yolg'iz qolib suhbatlashdik. Qishloq hayotidagi yangiliklarni so'rab-surihtirdim. Akam joylashib o'tirib olib, ko'ksini kergancha boshini tebratib gap boshladi:

“Eng quvonarli joyidan gapni boshlay. Ko'rganlaring — kolxozni o'rtasidan ikkiga ajratib turgan yo'lga o'tgan asrning yetmishinchi yili asfalt yo'tiqizilgan bo'lsa, naq ellik yil shu zaylida turdi. Shuncha yilda odamning umri tugab ketadi, yo'l nima bo'libdi. Yozda chang-to'zon, qishda loy,

yo'q. Mana, hozir binoyiday sement qilinadi. Bu ellik yil bo'lmasa ham naq qirq besh yil kutilgan ish edi. Bularni ko'rib turgan el mustaqilligimiz abadi bo'lsin, shu ishlarimiz boshida turganlar ko'p yashasin, deb duo qilib yotibdi. Oq tuproqli yerga sementlangan kanal yaxshi bo'larkan. Necha yillardan beri kullangan ishlar qisqa davrda bo'ldi-ko'ydi. Xudoyim yaxshiligini ham qo'shsalab berar ekan-da. Maqtangandek bo'ladi-yu, aytisam maqtanishga arziyidigan gap. Ta'rifi keltirib o'tirmay, mahallalarning aksariyati hovlisida artezian suvi



ayniqsa, qahratonda bu yerlardan yurish imkoni bo'lib qolardi. Faqat traktor uncha-muncha yurardi. Mana, uchinchi yildirki, qishlog'imiz odamlari asfalt nimaligini bilib qoldi. Butun eski kolxoz hududi asfalt ko'rdi, hatto ora yo'llar binoyiday asfaltlandi. Ayniqsa, o'quvchilar, qariyalar, ayollar yog'ingarchilik damlarda loyshang ko'chalarda rosa qiynalardi. Oddiy xalqning qo'ldan asfalt qilish kelmagach, ahvoli ko'rib achinishdan boshqasiga yaramay-san ekan. Chindan ham millatimizning hurriyatga erishganini, oradan shuncha yil o'tib, endi his etaymiz. Yo'llar sozlangach, boshqa narsalarga ham rang kirib, ajoyib bo'lib qoldi-yey. Eng muhimi, tirik-chilik birinchi o'rinda-ku, har mahallada to'rtta-beshatdan do'kon bor. Ikki-uch chaqirimda qassobxon, ustaxona deysizmi, shaharda bor narsa bu yerda ham bor. Sizar bolalikda xayol ham qilmagan muzqaymoq-chi, xohlagan payt topiladi. Bolalarning quvonchini aytmay qo'yavering. Aslini olsak, bolalar quvonchini ko'rish uchun jonimizni jabborga bermaymizmi? Yo'ling ravon, hayotning farovon deganlari shu bo'lsa kerak. Loy kechmay, chang-to'zonga belanmay yursang, ishing ham unib, kayfiyat ham ochilib ketaverar ekan.

Tomorqalarga qarab yana bir yayray-san. Yana o'sha gap. Oqqopchig'ay kanali ham 50 yil burun paxta dalalari uchun qanday qazilgan bo'lsa, o'shanda foydalanilardi. Qarovsizlikdan kanal ham tusini o'zgartirib, fayzini yo'qtarkan. Chunki bir tomondan, yildan-yil atrofdagi qishloq yerlari zaxlab, loyqa to'lib, bir hovuch suv ham sig'may qolgandi. Suv talashishlar, aytgilligi

Bu islohotlarga bosh-qosh bo'layotganlardan minnatdormiz. Ularning ishida ham kamchiliklar yetarlidir. Ammo bizniki kabi uzoq qishloqlargacha xayrli ishlar yetib keldimi, demak, aniq ayta olaman, juda ko'p ishlar qilinmoqda. O'z erking o'z qo'lingda bo'lgach, ertami-kech yo'ling ravon bo'lishiga umid bor ekan. Bo'ldi ham. Bundan ham yaxshi bo'lishiga ishonchimimiz bor. Xudo xohlasa, tobora yaxshilanib boraveradi. Endi buyog'i biz keksalardan duo, yoshlarga quvvat bersin. El-yurt xizmatini qilib hech tolmasin.

Inim, o'zingiz yaxshi bilasiz, umrimning katta qismida kolxoz qishloq sovetida faoliyat yuritdim. Shu elning yo'lini, tomorqasini, oqar suvini, ahvolini yaxshi bilganim, shu ishlar bilan ko'p yillar shug'ullanganim uchun o'zingiz tanish narsalar haqida gapirib berdim”.

Shuning barobarida akamning bugungi kunlardan mamnun bo'lib, shukronalik

bilan aytgan gaplari-yu, charaqlab turgan ko'zlariga, tabassumli yuzlariga har boqqanimda ich-ichimdan iftixor tuydim. Qishloqning oddiy bir kishisi aytgan gaplardan xulosa qiladigan bo'lsam, shaxsan o'zimginijodkor sifatidagi ishlarimdan uyaliy ketdim.

Ertasi kuni ertalab maktabda ona tili va adabiyot fanidan dars bergan ustoz Xolmirza Xo'jakeldiyevning uyiga o'tdim. Ustozning yoshi saksandan oshgan bo'lsa-da, hali bardam. Hassasiz yuradi. Gaplari dadil. O'qituvchilikdan nafaqaga chiqqach, ancha yillar mahallaga raislik qilgan. Bolalarga quvonib qarshiladi. Bu insonlar men uchun yana ham qadri, otamning qadrdonlaridan. Shuning uchun hayajon bilan ko'rishdik. Dasturxon boshiga o'tirishimiz bilan qizg'in suhbat boshlandi. Bu odamni taniganimdan beri haqiqatdan boshqasini gapirganini eshitmaganim. Shu bois, qishloq yangiliklaridan so'radim.

“Qishloqlarda ham maqtanadigan gaplar ko'p, — deya salmoqlab gap boshladi. — Xo'sh, ilgari orzu bo'lgan ko'p ishlar ro'yog'ga chiqyapti. O'zimizdan hamma sohaning muhandislar bo'lishini qanday orzu qilgan bo'lsak, bugun ular qishlog'imizdan ham chiqyapti. Misol uchun, Hayit bog'ining bir o'g'li harbiy uchuvchi bo'ldi, vertolyot-u samolyot boshqaradi, osmonda. Biz yerda arang yuramiz-uz, Hayitbog'ning o'g'li osmonda. Bunday uchuvchilar, ayniqsa, qishlog'imizdan chiqishini u paytlar orzu ham qilmaganmiz.

Qirq yil maktabda dars berdim. U kezlarda o'qituvchi va o'quvchilar hammasi majburiyat paxta dalasida bo'lib, dekabrda ham maktabga qaytmadim. Endi u davrlar tarixga aylandi. Bugun qishloq yoshlari o'ziga ishongan holda O'zbekistonimizning xohlagan joyidagi oliy ta'lim dargohlarida o'qimoqda. Bizga o'xshab majburiyat mehnatga safarbar etilmayapti.

Kuz oylarida maktab oldidan u yoq-bu yoqqa o'tib-qaytaman. Bolalarning shovqin-suronini eshitib, ochig'i, ko'zimga yosh keladi. Bu, albatta, bugungi kunlarning quvonchidan. Boshida ozodlikka erishgan bo'lsak ham ichimizdagi mutellik kelmagan.

To'g'ri, og'ir yillarni boshdan o'tkazdik. Mehnatda tarbiya topgan bolaning bilgani yana mehnat bo'larkan. Oila boqish uchun musofir yurtlarda mardikor bo'ldi. Aqli yetgani shu, boshqa nima ham qilsin. Lekin hozir boshqacha, maqtanmasam bo'lmaydi. Bor gapni aytib g'ururilanaman. Qishloqlarda ho'sen yashaydigan poytaxtdagi maxsus maktablardan kami yo'q maktablar ochildi. Yangidan ochilgan bog'chalardan qaytgan nevara-chevalarladning xursandligini ko'rib, ko'nglim tog'lay o'sadi. Go'dak bolalar jamiyatini his etib ulg'aymoqda. Ularning hayotida ham tartib bor. Bu juda katta narsa.

Oldinlari maktabni o'ttiz o'quvchi bitirsa, nari borsa bitta yoki ikkita oliy o'quv yurtiga kirardi. U ham pedagogika yoki qishloq xo'jaligi instituti bo'lardi. Boshqa kasblar ham borligini bu qishloqlar ko'p bilgan, shekilli. Negaki ilgari Surxondaryo katta viloyatda nomiqagina bitta oliy o'quv yurti bor edi. Termizda. O'qish haqidagi orzarlarimiz shu Termizdan nariga o'ttama. Hozir viloyatimizning o'zida yettita oliy o'quv yurti bor. Boshqa shaharlarda o'qishi qo'shimcha imkoniyat. Hatto chek eldagi universitetlarda o'qishi ham bilib oldik.

Bulaning bari ichimizdagi qullikdan qutulayotganimizdan dalolat. Shu qishloqdan fan doktori, professorlar, yozuvchi-shoirlar yetishib chiqib boshladi. Bugungi yoshlarimizning ko'zi porlab, naq yulduzni nishonga olgan. Tabiiyki, bolajonlar atrofga qarab, real hayotda ko'rganlaridan ilhomlanib, orzu-havas qiladi, intiladi.

Bir paytlar maktab bitiruvchilari to'liq traktorchiлик guvohnomasini olgan paytlarni ham ko'rdik. O'sha paytda, to'g'risi, bu holdan mamnun bo'lganmiz. Oila boqishi uchun bir kasbni tayin qildi, degan o'yda bo'lganmiz-da. Traktorchi bo'lsa, dalada ishlamaydi, yaylovda cho'pon bo'lishdan afzal, deb tushunganmiz-da. Endi o'yab ko'rsam, ulug' maqsadimiz deb bilganimiz traktorchiлик bilan chegaralangan ekan. Mustaqilligimiz sharofatidan haqiqiy ulug' maqsadni yoshlarimizda ko'nyapmiz. Yetkazganiga shukr”.

Ustozimning huzuridan qaytar ekanman, kun botishga oqqan edi. Atrof biram chiroyli, maftunkor. Yo'lda esa zamonaviy mashinalar u yodgan bu yoqqa g'izillab o'tadi, oxiri yo'q-day. Ha, Pardahoji to'g'ri aytdi: yo'l bo'lsa, taraqqiyot, farovonlik bo'ladi.



MUNOSABAT



Keyingi yillarda davriy nashrlarda o'zbek bolalar adabiyoti tanazulga yuz tutgan haqidagi maqolalar urchib ketdi. Yaqinda o'zini bolalar yozuvchisi deb hisoblaydigan ijodkorlardan biri maqolasida “O'zbek bolalar adabiyoti o'lgan”, deya hukm chiqarib yuborganiga ko'zim tushdi. Mana shu noxush holat o'z fikrlarimni qog'ozga tushirishga undadi.

## O'zbek bolalar adabiyoti TIRIK VA YASHAYAPTI!



**Muhabbat Yo'LDOSHEVA,**  
O'zbekiston Yozuvchilar  
uyushmasi a'zosi

2020-yilda, Covid-19 tufayli karantin e'lon qilinib, ishxonalar yopilgan paytda bolalar yozuvchisi Gulnoz Tojiboyeva bilan birga “O'zbek bolalar adabiyoti antologiyasi”ni tuzishga kirishdik. 3 jildli bu antologiya nasr, nazm va tarjimadan iborat bo'lishi kerak edi. Va nihoyat, 2022-yilda 50 nafar bolalar adibining asarlari kiritilgan antologiyaning birinchi — nasr qismini yakunlab, nashr etish uchun Yozuvchilar uyushmasiga topshirdim. Hozirgi paytda shu antologiyaning bolalar she'riyatiga bag'ishlangan ikkinchi qismini tayyorlash jarayoni ketyapti. Bu kitobga taxminan 70 nafarga yaqin bolalar adibining asarlari kiritiladi. Raqamlarga e'tibor bering-a! Hatto ko'pchilik bolalar adiblari ham she'r, ham hikoya va e'taklar yozishini hisobga olsak, ayni paytda O'zbekistonda 100 dan ortiq bolalar yozuvchisi bor. Ularning bari sarmahsul ijod qilaypti, hatto o'z hisobidan bo'lsa-da, bolajonlarga atab kitoblar nashr qildiryapti. Shunday ekan, o'zbek bolalar adabiyoti o'lgan, degan gap-so'zlar qaydardan chiqyapti va ulardan kimga qanday naf bor?

Yurtimizdagi nashriyotlar tomondan bolalar adabiyotiga e'tibor susayib ketgani, shu bois, yosh ijodkorlar bolalardan ko'ra kattalarga atab yozishni ko'proq ma'qul ko'rayotgani esa haq gap. Ularni ham tushunish kerak: bolalarga atalgan kitobini yillab ko'tarib yurgandan ko'ra kattalarga yozib, tanilish osonroq-da! Yosh ijodkorlar fantastika janrida umuman yozishni xohlamaydi, chunki bu janrdagi eng yaxshi asarlar ham otaxon nashrlardan qaytarilayotganiga bir necha bor guvoh bo'lganman...

Shu bois, 2019-yilda bolalar yozuvchisi Gulnoz Tojiboyeva tashabbusi bilan “HUMO-2019” respublika e'taklar tanlovinii o'tkazishga qaror qildik. Tanlovni tashkil etishda menga filolog Yelena Gryukalova yordam berdi. Biz xalqaro hakamlar guvohiga Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Bolgariya va Ozarbayjonda yashovchi bolalar adiblarini taklif etdik. Bu tanlovni o'tkazishdan maqsad mamlakatimizda yashab ijod qilayotgan 35 yoshgacha bo'lgan bolalar yozuvchilarini topish, ijodini qo'llab-quvvatlash edi. Tanlovga noshir Akmal Najmiddinov, yozuvchilar Dilfuza Qo'ziyeva, Maryam Ahmedova, Asror Allayorov va bolalar yozuvchisi Xurshid Tojiboyev homiylik qildi va yigirmaga yaqin iqtidorli yosh bolalar yozuvchisini kashf qildi. Mana shu yoshlarning ijodi o'zbek

bolalar adabiyotiga zabardast oqim kirib kelayotganidan darak berdi.

Hozir yurtimizda bolalar va o'smirlar uchun nashr qilinayotgan kitoblarning asosiy qismini chet ellik mualliflarning tarjima asarlari tashkil etadi. Ilgari o'zbek tiliga o'g'irladigan kitoblar, asosan, rus tilidan tarjima qilinardi. Bunda hamma gap xori-jiy tildagi kitoblarni rus tiliga o'g'irgan tarjimonning mahorati va bilimiga bog'liq bo'lib qolardi. Illo, asarni kitobxonlarga yetkazishning eng yaxshi yo'li sifatli tarjimadir.

Mammuniyat bilan ta'kidlashimiz kerakki, shu yillarda o'zbek adabiyotidagi mana shu muammo bartaraf bo'ldi. Chunki o'zbek adabiyotiga kirib kelayotgan ijodkor yoshlarning aksariyati xorijiy tillarni puxta bilishdan tashqari, sifatli tarjima qilish malakasiga ham ega. Bilim yuki zalvorli bo'lgan mana shunday ijodkor yoshlarning g'ayrat-shijoatidan foydalanib, o'zbek bolalar adabiyotini rivojlantirish yo'lidagi urinishlarimizning mahsuli sifatida “O'zbek bolalar adabiyoti antologiyasi”ning uchinchi — tarjima qismini yarataymiz. Bu kitobga kiritadigan, bolalarga mo'ljallangan asarlarni yosh ijodkor-tarjimonlar Xurshid Tojiboyev, To'maris A'zam, Rahshona Ahmedova, Dilobar Aslidin qizi va boshqalar ingliz, koreys, yapon, nemis, turk va boshqa tillardan bevosita o'zbek tiliga o'g'irgan. Bolalar yozuvchisi Gulnoz Tojiboyeva 10 dan ortiq bolalar yozuvchisining asarlarini rus tiliga tarjima qilib, Rossiya, Ukrainada nashr qilinishida tashabbus ko'rsataypti.

Men raqamlarga bekorga urg'u be-rayotganim yo'q. Illo, yurtimizda bolalar adabiyotidan uzoq, biz qilayotgan ishlarga “tobut” yasayotgan hamkasblarimiz bulardan bexabarligi aniq.

Mashhur olim Albert Eynshteyn “Bolalaringiz aqli bo'lishini istasangiz, ularga erak o'qib bering. Agar yanada aqli bo'lishni xohlasangiz, unda yanayam ko'proq erak o'qib bering”, degandi. Bu bilan Eynshteyn aynan erakka emas, balki kitobga mehri bolaga yoshligidanoq singdirish kerakligini ta'kidlagan. Olim haq, kitob o'qishga qiziqishni bolaning tili chiqqani hamoni boshlash kerak. Men buni amaliyotda sinab ko'rganman, vaziyat taqozosi bilan farzandlarimga alla o'mriga erak aytganman. Shu tufayli qizim 6 yoshidan, o'g'lim 4 yoshidan erak to'qiy boshlaganiga, ulg'aygach esa ikkovi ham yozuvchi va tarjimon bo'lib yetishganiga ajablanmasa ham bo'ladi...

Ayni paytda bolalar adabiyoti rivojiga katta e'tibor qaratilyapti. Sohoga oid qarorlar qabul qilinaypti, bolalar kitoblarini nashr qiladigan nashriyotlarga imtiyozlar berilyapti. Bolalar adabiyotiga kirib kelganiga 40 yildan oshganiga qaramay, haligacha birona mukofot olish tuqul, hatto rahmat ham eshitmagan mendek bolalar yozuvchisining ko'p yillik mehnatlari e'tirof qilinib, mustaqilligimizning o'ttiz ikki yilligi arafasida “Shuhrat” medali bilan taqdirlanish ham bolalar adabiyotiga e'tibor natijasidir. Men faoliyatim davomida o'ttizdan ortiq o'zbek yozuvchisining asarlarini rus tiliga, o'nlab rus adibining asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilib, ikki xalq o'rtasida adabiy o'stlik aloqalariga hissa qo'shayotganim tufayli Rossiyaning xalqaro mukofoti — “A.S.Pushkinning 200 yilligi” medali bilan taqdirlanganim haqida xabar oldim. Har qanday e'tibor va rag'bat yozuvchi ko'nglini ko'taribgina qolmay, balki yanada yaxshiroq asarlar yozishga undashi haqiqatdir.

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DUK

Bosh muharrir:

**Salim DONIYOROV**

MUASSIS:  
O'zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul.  
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-946.

43555 nusxada bosildi.  
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Shahzod G'afarov  
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz: 100029,  
Toshkent shahri,  
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy